



**O‘ZBEKISTON XALQ TA’LIMI VAZIRLIGI
MUQUMIY NOMIDAGI QO’QON DAVLAT
PEDAGOGIKA INSTITUTI**

**5111200- O‘zbek tili va adabiyoti bakalavr yo‘nalishi
403 –guruh talabasi Azimova Gulshodaning “Hozirgi o‘zbek
nasrida insoniyat taqdiri masalasining badiiy ifodasi (Isajon
Sulton ijodi misolida)” mavzusidagi**

BITIRUV MALAKAVIY Ishi

Ilmiy rahbar: dotsent, f.f.n. Z.Qobilova

MUNDARIJA

Kirish.....	1-4
I BOB. Hikoyalarda falsafiy- badiiy talqin imkoniyatlari.....	4-25
1.1. Hikoyalarda milliy xarakterning falsafiy qiyofasi.....	4
1.2. Hikoyalarda hayot va o'lim muammosi talqini.....	17
II BOB. Qissalarda insoniyat taqdirining badiiy aksi.....	26-32
2.1. Insonni anglashning o'ziga xos falsafasi.....	26
2.2. Hayot falsafasining badiiy talqini.....	28
III BOB. Romanlarda odam va olam inkishofi.....	33-37
3.1. "Boqiy darbadar" romani o'ziga xosligi.....	33
3.2. Ramzlar va ularning yozuvchi niyatida tutgan o'rni.....	35
Xulosa.....	38
Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.....	43

KIRISH

Mavzuning dolzarbligi. Mustaqillik davrida o'zbek adiblari yaratgan nasriy asarlarni tadqiq etganda, o'zbek adabiyotida alohida shaxslar olamini, ularning o'ziga xos tuyg'ularini aks ettirish borasida qator yutuqlar qo'lga kiritganligiga amin bo'lamiz. To'g'ri, har bir odamning o'zi alohida shaxs. Ayni chog'da, u o'zigagina xos olamga, intellektual – ruhiy xususiyatlarga ega. SHu jihati yuksalgan sayin inson o'ziga xos xislatlarini, o'z individualligini yanada teranroq, yorqinroq aks ettiradi. O'zbek yozuvchilari ayni shu hayot haqiqatini o'z ruhiyatini taftish etib, o'zligini anglashga intiladigan qahramonlar vositasida, odamlarga ham boshqalar kabi emas, o'ziga xos munosabat bildirish, o'z qahramoni orqali atrofdagi odamlarni o'zimizga ma'qul kelish yo kelmasligiga qarab emas, balki boricha, qanday yaratilgan bo'lsa, shundayligicha ziddiyatli va murakkab inson sifatida qabul qilish zarurligini, muhimi, insonni anglash ekanini ta'kidlashga urinayotganliklari milliy mustaqillik davri o'zbek adabiyotiga xos muhim xususiyatdir. SHunisi ham borki, insonni tushunishga da'vat etish insonni anglash falsafasini talab qiladi. Insonni tasvirlash orqali esa ana shu hayot falsafasi yaratiladi. Zotan, adabiy janrlar taraqqiyotining yangi davrida hodisalarga va inson shaxsiga yondashish tamoyillarining o'zgarib, takomillashib borishi tabiiy va zaruriy jarayon hisoblanadi. Ammo badiiy ijodning azaliy qonunlari barcha davrlar uchun o'zgarmasdir: yozuvchi voqeanavis emas, insonshunos sifatida ish ko'rib inson qalbi haqida aytilmagan haqiqatlarni badiiy kashf etsagina, u yaratgan asar estetik qimmat kasb etadi.

Har bir davr adabiyoti o'z taraqqiyotiga muhim hissa qo'shgan va uning yuksalish tamoyillaridagi yorqin sahifalarida muayyan o'rin tutgan san'atkorlariga ega bo'ladi.

Iste'dodli yozuvchi Isajon Sulton ham ana shunday so'z ustalari qatorida turadi. U o'zbek adabiyotining XX asr so'nggi choragida hikoyachilik, qissachilik va roman sohasida o'zining takrorlanmas ijodi bilan chuqur iz qoldirdi. YOzuvchining chuqur mushohadaga undovchi zamonaviy va tarixiy hikoyalari, romanlari o'zbek adabiyotining boy xazinasidan mustahkam o'rin oldi va bugun

ham kishilar ma'naviy dunyosini munavvar qilishdek muqaddas vazifasini bajarib kelmoqda.

YUrtimiz va xalqimiz istiqloлга erishgandan so'ng o'tgan davrlarda siyosat, mafkura va ijtimoiyotning turli sohalarida ulkan evrilishlarni boshdan kechirdi, o'zgarishlar, tom ma'noda inson manfaatlariga yo'naltirilgani bilan e'tiborlidir. Ayni chog'da, bu jarayon jahon ma'naviy tamaddunida munosib mavqega ega bo'lgan o'zbek adabiyoti va adabiyotshunosligi oldiga ham bir qator yangi va ma'suliyatli vazifalarni ko'ymoqda. Milliy mafkuraning poydevori tiklanib, ma'naviy hayotda yangicha o'zgarishlar sodir bo'layotgan ushbu kezlarda yaqin o'tmish hisoblangan XX asr o'zbek adabiyotiga, uning boy va serqatlam xazinasiga teran ko'z bilan qarash, ularni chuqur va har tomonlama tahlildan o'tkazish hamda ularga bugungi mafkura tamoyillari asosida yondashish zaruriyati yuzaga kelmoqda.

degan so'zlari zamonaviy o'zbek adabiyotiga yangicha talablar asosida yondashish, serqatlam va serjilo o'zbek nasri bosib o'tgan davr bosqichlarini yangicha tamoyillar asosida tadqiq etish va baholash zaruriyatini talab etmoqda.

Mazkur ishimiz ham bu borada amalga oshirilayotgan tadqiqotlarga kichik ulush bo'lib qo'shilishi bilan dolzarbdir.

Mavzuning o'rganilish darajasi. O'zbek adabiyotshunosligida mavzu bo'yicha qator tadqiqotlar amalga oshirilgan. Xususan, B.Nazarov, U. Normatov, I.G'afurov, A.Rasulov, Y. Solijonov, D. Quronov, G.Sattorova, M.Qo'chqorova, Z.Qobilova kabi olimlar u yoki bu darajada mavzu yuzasidan to'xtalib o'tganlar¹. SHuningdek, R.Rahmat, G.Sattorova, M.Qo'chqorova kabi yosh adabiyotshunoslarning tadqiqotlarida mavzuga oid teran talqinlarni kuzatish mumkin².

Ishning maqsad va vazifalari. Mazkur ishning asosiy maqsadi hozirgi o'zbek nasrida falsafiylikni adabiyotshunosligimizda qaror topib borayotgan

¹ Normatov U. Ijodni anglash baxti. –T.: SHarq, 2007; G'afurov I. Mangu latofat. –T.: Rasulov A. Badiiylik bezavol chngilik. –T.: SHarq, 2008; R.Rahmat. Adabiyotdan chiqish. –T.: YAngi asr avlodi, 2013; Sattorova G. "Milliy xarakter va badiiy talqin". –T.: Fan, 2007; Qo'chqorova M. Badiiy so'z va ruhiyat manzaralari. –T.: Muharrir, 2011.

yangicha tamoyillar asosida tadqiq etish va bu orqali adiblar mahorati qirralarini ko'rsatishdan iborat. SHunga ko'ra, mazkur tadqiqotda quyidagi vazifalarni hal etish ko'zda tutiladi:

- falsafiy teranlikka boy bo'lgan hikoyalarni tasnif qilish ;
- hikoyachilikdagi falsafiy badiiy talqin imkoniyatlarini kuzatish ;
- obraz, ramz, badiiy detalga yuklangan mazmunni ochish;
- falsafiy mushohadakorlik aks etgan qissa va romanlarni tahlilga tortish.

Ishning metodologik asosi va metodi. Mazkur tadqiqotning metodologik asosini Prezident I.A.Karimovning ma'naviyat va uning uzviy tarmog'i bo'lgan badiiy adabiyot borasidagi ko'rsatmalari, shuningdek, o'zbek adabiyotshunos olimlarining hikoyachilik va undagi badiiy mahorat masalalariga bag'ishlangan asarlaridagi yo'l-yo'riqlar tashkil qiladi. Ayni chog'da, M.Qo'shjonov, O.SHarafiddinov, B.Nazarov, U.Normatov, B.Sarimsoqov, A.Rasulov, N.Vladimirova, B.Karimov, G.Sattorova va boshqa mualliflarning kitoblari hamda ilmiy maqolalarida hikoyachilik yuzasidan ilgari surilgan fikrlarga tayanildi. Tadqiqotda badiiy tahlilning qiyosiy-tipologik metodidan foydalanildi.

Ishning nazariy va amaliy ahamiyati. Mazkur BMI materiallaridan o'rta maktablar, kasb-hunar kollejlari, akademik liseylarda o'qitiladigan adabiyot darslarida foydalanish mumkin.

Ishning tuzilishi. Ish kirish, 6 fasldan iborat bo'lgan uch bob, xulosa hamda foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat bo'lib, ishning umumiy hajmi 43 betni tashkil qiladi.

I BOB. Hikoyalarda falsafiy- badiiy talqin imkoniyatlari

1.1. Hikoyalarda milliy xarakterning falsafiy qiyofasi

Adabiyot yaralibdiki, uning bosh vazifasi bu- insonni himoya qilish, insonni ulug'lash, undagi g'ayri insoniy illatlar va odamiylik fazilatlarini kashf etish. Insonning ko'nglidagi rahmon bilan fe'lidagi shaytonning sir-sinoatlarini, qilmish qidirmishlarini ochib berish bo'lgan.

Ma'lumki, hikoya, qissa, roman singari epik tur janrlarining har biri o'ziga xos qonuniyat va talablar asosida yaratiladi. Aytish mumkinki, bugun o'zbek adabiyoti ko'p asrlar mobaynida shakllangan milliy o'ziga xosligini to'la saqlagan holda jahon adabiyoti tarkibiga qo'shilish yo'llarini izlab topish imkoniyatiga ega bo'ldi. Bu hol ayniqsa, epik asarlardagi falsafiy teranlikda yaqqol namoyon bo'lib bormoqda.

O'zbek hikoyachiligi ikki xil yo'nalishda rivojlanayotganligini kuzatish mumkin: an'anaviy realistik va noan'anaviy modernistik. Zamonaviy o'zbek yozuvchilari hikoya janrini ham ustoz o'zbek hikoyanavislarining, shu bilan bir qatorda klassik jahon hikoyachiligi ijodiy tajribalari bilan, ramziy-majoziy obrazlar va uslub jihatdan g'arb adabiyotiga xos modernistik shakl va usullardan keng foydalanishib, hikoyachilikda yangicha badiiy-estetik yangilanishlar yasashmoqda. Ularda qahramon ruhiyatiga yanada chuqur kirish, badiiy psixologizmning yangicha tasviriy vositalari bo'lgan adabiy gallyusinasiya, illyuziya singari tasvirlar, yangicha ramziy-psixologik timsollar yaratish, hatto yozuvchi fantaziyasi bilan yaratilgan badiiy- romantik to'qima obrazlar talqini ham uchraydi. Bugungi hikoyanavislarimizning badiiy tafakkuri yangicha evrilishlarga ega bo'lib, yangi yo'nalishdagi tadqiqotlarga arziydi. SHo'ro davri o'zbek adabiyotida badiiy asarlar "Hayotni real aks ettirish" shiori ostida hayotiy voqealardan nusxa ko'chirish ostida yuzlab roman-qissa-hikoyalar yaratildi. SHuningdek, adabiyotshunoslar ham nusxa ko'chirish asnosida yaratilgan badiiy asarlardan asosan, real hayot, sho'ro mafkurasi g'oyalarini, ideal qahramon obrazini izlash bilan ovora bo'ldi. Biroq, haqiqiy adabiyot real hayotdan shunchaki nusxa ko'chirishdan iborat emas. Unda

yozuvchining yuksak badiiy tafakkuri, romantik xayoloti, original badiiy to'qimasi, badiiy-estetik ideali, muallif dunyoqarashi aks etmog'i lozim. SHu ma'noda, so'nggi o'n yillik o'zbek hikoyachiligida X.Do'stmuhammadning «Beozor qushning qarg'ishi» hikoyalar to'plami, Sobir O'narning «CHambilbelning oydalasi» (qissa va hikoyalar to'plami), Nazar Eshonqulning "YAlpiz hidi" (qissa va hikoyalar to'plami), A.Yo'ldoshning «Bir tun va bir umr» (qissa va hikoyalar to'plami), Ulug'bek Hamdamning "Uzoqdagi Dilnura", "Vatan haqida qo'shiq" (qissa, hikoyalar, romanlar to'plami), Isajon Sultonning "Boqiy darbadar", "Ozod" (hikoyalar, qissa va roman) nomli nashr etilgan kitoblari e'tiborga loyiq.

Ma'lumki, hikoya namunalari X.Do'stmuhammad adabiy merosining kattagina qismini tashkil etadi. Bular mumtoz adabiyotimizda badiiy takomil topib, yangi davr talablari bilan jiddiy ishlangan, jahon va o'zbek adabiyotining realistik hamda modern tamoyillari bilan omuhtalangan, o'tmishdagi eng ilg'or an'analarni o'ziga singdirgan holda kamol topgan badiiyat durdonalari hisoblanadi. "Jim o'tirgan odam", "Saf", "Beozor qushning qarg'ishi", "Mirkomilboyning qazo bo'lgan namozi" "Mahzuna", "Jimjitxonaga yo'l" kabi hikoyalari yangi zamon nasri bilan asrlar davomida shakllangan SHarq va G'arb nasrining ilg'or an'analarni sintezlashtirgan va shu orqali kitobxonlarga manzur bo'larli ijod namunalaridir. Mazkur asarlarda yozuvchi syujet va fabula tanlash, asarlar kompozitsiyasini o'qishli tarzda tuza olish, obraz yaratish, har bir tasvirni badiiylik qobig'ida ta'sirchan bera olish mahoratini namoyon qila bildi.

X.Do'stmuhammad nasriy ijodining ilk pallasidayoq bayonchilikdan qochib, inson shaxsi, qalbini tahlildan o'tkazish, asosiy diqqatni insonda yuz beradigan teran kechinmalarga qaratib, uni chuqur tadqiq qilish yo'lini tutdi. Bir so'z bilan aytganda, u har bir nasriy asarni mukammal kompozision qurilishini ta'minlashga harakat qildi, asoslash va ishontirish san'atini chuqur egalladi, qahramonlarning hayotiyligini ko'rsatishga intildi, voqelik tasvirida falsafiy mushohadalarga keng o'rin berdi, ularni lirizm bilan uyg'un holda ifoda etdi.

Zamonaviy o'zbek adabiyotida modernlashgan realizmning konseptual asosda namoyon bo'lishida Xurshid Do'stmuhammad ijodining o'ziga xos o'rni bor. O'tgan asrning etmishinchi yillar oxirlaridan adabiyotimizda mazkur yo'nalishning muayyan estetik konsepsiya negizida shakllana boshlab rivojlanishi va so'nggi o'n yillikda avjlanib, adabiy-estetik tendensiya tusini olishi aynan shu ijodkor asarlari misolida o'zining aniq-tiniq tasdig'ini topdi.

Bunday uslubiy yo'nalish adibning ilk hikoyalaridan boshlab, "Nigoh", "Panoh", "Oromkursi", "So'roq", "Sof o'zbekcha qotillik", "Hijronim mingdir mening", "Kuza..." qissalari hamda "Bozor" romanida amaliy ko'rinish kasb etgan. Ammo shuni alohida ta'kidlamoq o'rinliki, yozuvchining ijodga "o'zgacharoq yondashishi", "turfa tajribalar"i realizm doirasida yuz beryapti. Mana, Xurshid Do'stmuhammadning o'z e'tirofi: "Fikri, suyagi sho'ro davrida qotib ulgurgan aksariyat adiblarimiz, adabiyotshunos olimlarimiz ko'z ko'rib, quloq eshitgan narsanigina realizm deb atashadi, ya'ni, hayotda yuz bergan voqea-hodisa real, xayoldagi, tasavvurdagi, tushdagi kechinmalar noreal. Boshqa sezgi a'zolari ham mavjudligi, dunyoni ehtiroslar, tuyg'ular, sezgilar orqali idrok etish mumkinligi va lozimligi, intuisiya, qo'yingchi, insonga xos ko'zga ko'rinmas mayllar tan olinmaydi. Vaholanki, xayolimiz ham, tasavvurimiz ham, tushda ko'rganlarimiz ham kundalik turmushimizda ko'rayotgan manzaralar singari real, mavjud. Demak, realizm tushunchasi nihoyatda keng. Tasavvurimizga sig'mas darajada keng. SHuni tan olsak, badiiy tasvir vositalarimiz ham cheksiz darajada ko'payadi, tan olmasak ..."³.

Kechagi cho'kichu cho'qmor o'rnini bugun yana qo'shimcha yuzlab funksiyalarni bajaradigan robot-mashinalar egallab olganidek, endilikda, adabiyot va san'atda ham yakrang hodisalar bo'lmaydi. Zotan, adabiyot va san'at o'zi asliyatidan boshlab yakranglikni inkor etgan, turfalikni kashf etib taraqqiy topgan. Ana shu turfalikda olamu odam go'zalligini inkishof eta borib, fikrlovchi insonda ruhning bemisl qudrati va abadiyligiga ishonch, e'tiqod paydo qilgan. Zero,

³ Xurshid Do'stmuhammad. Ozod iztirob quvonchlari. Toshkent: Ma'naviyat, 2000.- B. 47.

Xurshid Do'stmuhammad ijodini faqat hissiy yondashuvning o'zi bilan tahlil etib, tushuntirib bo'lmaydi. Unda hissiyot to'liqlari hamisha tafakkur qirg'oqlariga urilib turadi. Biri ikkinchisini o'zaro taqozo etadi. Binobarin, o'zan bor, biroq, u qazilgan kanaldek to'ppa-to'g'ri o'zan emas, balki hayot yo'llarining oddiy ko'zga noayon eng teran xil'atlari, eng chekka puchmoqlarini qamragan o'zan. SHular quyilib, qissa, roman degan katta o'zanlar to'lib, to'liqib oqadi. Qancha-qancha ruhiy va aqliy quvvat tilagidagi insonlarga obihayot bag'ishlaydi, qondiradi. Xurshid Do'stmuhammad o'zanlaridagi zilolga piyola botirmoq oson ish emas, garchi, u sharshara emas, o'zan bo'lsa-da. Goho chuqurlikda, goho shitob oqishidan bir hovuch suv olib sipqarish mushkul keladi. Ammo mashaqqatini chekib, chanqoqlikni bir sidra qondirdingmi, endi, qayta-qayta ichging ham kelaveradi. Mashaqqati cho'chitmaydi, aksincha, zilolini shirinroq, totliroq qiladi. Bu ne'matdan bahramandlik qalbni, tafakkurni poklaydi, g'uborlardan tozalaydi.

O'zbek hikoyanavislari orasida X.Do'stmuhammad o'zining original uslubi, g'arb va sharq prozasining yuksak ideallari va badiiy sintezini ifoda etgan «Ko'z qorachig'idagi uy», "Mahzuna", "Jajman", "Ibn Mug'anniy", "Jimjitxonaga yo'l", "Jim o'tirgan odam", «Qichqiriq» kabi 30 ga yaqin hikoyalari bilan keng adabiy jamoatchilikka tanildi. YOzuvchining ko'pchilik hikoyalarida g'ayriodatiy obraz va voqealar tasviri etakchilik qiladi.

YOzuvchining "Jim o'tirgan odam" hikoyasida bitta ilmiy institutda qirq yil xizmat etgan olim - Qurbonalining hayoti, xususan, uning pismiqlik xarakteri, ya'ni ko'rib, bilib-turib, bilmaganlikka olish kabi jamiyatimizda kun kechirayotgan shaxslarga xos loqaydlik ijtimoiy salbiy illati badiiy muhokama etiladi. Hikoya qahramoni Qurbonali aslida, hayotining birinchi qismida botir, gapga chechan edi. Ammo hayotining ikkinchi kismida xuddi otasi kabi padari vasiyat etib ketganidek, tiliga qulf solib jim yashaydi. Binobarin, Qurbonalining odamovi, ajabtovur xarakterini muallif hikoya matnida avtor bayoni vositasida shunday beradi: "Qitmirligimi, pismiqligimi tutganida u hech bir mo'minning etti uxlab tushiga kirmagan qiliqlarni o'ylab topadi. Deylik, uyidan chiqqach, ro'parasidan tanish-

bilish yaqinlashayotganini ko'rgan zahoti ko'zini chirt yumib, yo'lida davom etaveradi. Yo'l besh qo'lday ma'lum — na qoqiladi, na suqiladi. Betma-bet kelgan tanish esa hayron salomlashaymi-yo'qmi, deya bir qarorga kelgunicha Qurbonali bekatga etib ulguradi. Qilig'idan o'zi mutaassir bo'lib miriqib... ichida kuladi. Ha, bu inson ichida kulib, ichida quvonib, ichida xunob bo'lishni, nimaiki bo'lmasin, barini ichiga yutish san'atini mukammal egallagan"⁴. Ko'rinib turibdiki, adib Qurbonali obrazi orqali o'tmishda va hozir ham mo'min qobilgina bo'lib, bilganini ichiga yashirib yashash natijasida manfur qiyofali shaxsga aylangan millatning bitta muhim salbiy qiyofasini ochib beradi. Hikoyada bayon etilayotgan onasi vafoti bilan o'tkazilgan Ilyosvoynikidagi (Qurbonalining qo'shnisi) xudoyi ma'raka, ta'ziyaga kelgan chollarning gurungi, bu bahsga o'zgacha talqin bergan noma'lum shaxsning deyarli har kuni hikoya qahramoni oldidan chiqib, ma'rakadagi voqeani eslatish orqali, go'yoki, ramziy ma'noda jamiyatda olimlik maqomini olganu, ammo odamiylik maqomiga erisha olmagan Qurbonaliniig fojiaiviy hayoti muhokama etiladi. Qurbonali har kuni kutilmaganda oldidan chiqib, ma'rakadagi voqeani eslatuvchi bu kishini "Kimsan" deb ataydi. Bizningcha, yozuvchi bu obrazga hikoya qahramoni Qurbonali tili va nigohi bilan "Kimsan" deb ism berar ekan, mazkur ifodada ham hikoyanavisning muayyan badiiy maqsadi nish berib turibdi. Nazarimizda, Kimsan obrazi hikoyaning bosh qahramoni Qurbonaliga, uning butun boshli hayotiga, hayotiy a'moliga, qirq yillik ilmiy faoliyatiga "Sen o'zi kimsan?", "Bu dunyoda yashab, umring poyoniga etganida o'zingga savol berib ko'r-chi, sen nimaga intilding? Nimaga erishding? Nimani yutqazding?" - degan bir qator zalvorli savollarni o'rta tashlayotgandek taassurot uyg'otadi. Demak, Kimsan hikoya syujetini va uning muhim kompozision g'oyasini shakllantiruvchi aniq maqsadli, mantiqli obraz sanaladi. SHu bois hikoyada atay o'ylab topilgan topildik obraz "Kimsan" asar badiiy g'oyasini ochishda ochqich hisoblanadi. Kimsanning luqmaligap-so'zlaridan, chunonchi "jim o'tirgan odam eng havfli odam" degan hukm-xulosasidan so'ng Qurbonali

⁴ Do'stmuhammad X. Jim o'tirgan odam. // Beozor qushning qarg'ishi. Toshkent: SHarq, 2006. - B. 196.

oyog'i kuygan tovuqdek tipirchilab, vijdoni azobda qoladi. Qurbonali qanday fan sohasi bilan shug'ullangan, qanday ilmiy kashfiyot qildi, kabi tafsilotlarga yozuvchi mutlaqo to'xtalmaydi. Asarda ilgari surilayotgan ikkita muhim g'oya o'simlikning o'q tomiri singari ko'rinish berib turibdi. Birinchidan, bu Qurbonali hayoti misolida "Olim bo'lish oson, ammo odam bo'lish qiyin" degan jaydari bir xalqona falsafa ko'rsatib beriladi. X. Do'stmuhammad hikoya qahramonlari ismiga (Qurbonali, Kimsan, Qurolboy, To'lash tarasha, Ilyosvoy, Odilxon yuvosh) va ma'rakadagi "ilimli kishi qanday xususiyatlarga ega bo'lmog'i lozim" - degan bahsli munozaraga ham milliy, ham falsafiy-ramziy ma'no yuklaydi. Aslida kichik bir ma'rakada kechgan bahs, jamiyat hayotiga dahldor bo'lib, jamiyatning intellektual jihatdan eng aqllisi, etakchisi hisoblangan olim shaxsining naqadar tubanlashganini yozuvchi Qurbonali hayoti misolida taftish etadi. Eng muhimi, hikoyada millatning tili qulf bo'lib qolishiga sabab bo'lgan mustamlaka sho'ro davri, hatto o'z dini va e'tiqodini baralla ayta olishdan ham qo'rqadigan xalq fojiasi Qurbonali va uning otasi hayoti misolida, institut rahbari gap-so'zlari orqali badiiy tasvirda aks ettiriladi. Ta'mirtalab bo'lib qolgan idoraning zinasi Qurbonalining tashabbusi bilan sement qilinadi, so'ngra jamiyatdagi ijtimoiy o'zgarishdan so'ng oddiy sement zinalar tomigacha marmardan qilinadi. Mazkur tasvirlarda, xususan, Qurbonalining idoradoshi Odilxonning quyidagi gap-so'zlaridanoq ziyoli shaxsining naqadar qashshoqona hayot kechirayottanidan voqif bo'lamiz: Qurbon aka, - dedi kuzini chimirib. Ko'zoynagiga ko'rsatkich barmog'ini nuqdi. So'ng g'oyatda maxfiy yangilikni oshkor qilayotgan odamdek, bo'zrayib turib shipshidi: - Zina qolib, devoru tomlargacha marmar qoplanib ketdiyu, sakkiz yildan beri oynakni butlolmayman..⁵. Jamiyatda chiroyli, zamonaviy binolar qad rostlashi va ular shubhasiz, insoniyatga xizmat qilishi davlatning taraqqiy etganligidan nishona. Ammo ishxonadagi marmar zinalarining sovuqligi, yaltiroqligi va toyg'oqligi singari inson his-tuyg'ulari ham sovuqlashib, badbinlashib, odamovilashib ketmog'i aslo ijobiy xususiyat emas.

⁵ Do'stmuhammad X. Jim o'tirgan odam. // Beozor qushning qarg'ishi. Toshkent: SHark, 2006. - B. 217.

"Jim o'tirgan odam" hikoyasidagi ikkinchi o'q chiziq - marmar zinalar qaysidir ma'noda hikoyada insonlarga xos "usti yaltiroq, ichi qaltiroq" insonlarning ramziy timsoli ma'nosini badiiy ifodalagan. Zamon kundan-kun shiddatkor, yangicha axborot texnologiyaga, yangi ma'lumotlarni tez o'zlashtirib, jadal hayotga tatbiq eta oladigan uddaburon yoshlarga, shaxslarga muhtoj. Endi bunday tezkor jamiyatda Odilxon yuvvosh singari shaxslar yaxshi hayot kechirishga qodir emas. Chunki tuzum, jamiyat va zamona zayli o'zgardi. Hikoya qahramoni Qurbonali Odilxon yuvvoshning qo'li kaltaligi sababini zamonadan emas, o'zidan ko'radi: "Ko'zoynaging darz ketibdi-yu, mabodo ko'zing sitilib oqsayam aravangni o'zing, o'z qo'ling bilan sudraydigan zamon kelganiga qancha bo'ldi, so'tak! Eplasang - sudra aravangni, ko'chani boshingga ko'tarib surga, eplamasang - egamning dargohi bepoyon!".⁶ Qurbonalining ichki monologi orqali ifodalangan fikrlaridan ayon bo'lmoqdaki, u zamondan orqada qolib ketgan qoloq odam ham emas, u fikrlay oladi, baholay oladi, lekin dilidagi gapini tiliga chiqarmaydi. Uning eng katta nuqsoni shu. Zero, yuqoridagi qahramon ichki monologida u sakkiz yildan beri darz ketgan ko'zoynagini yangilay olmayotgan kasb- doshining shunday yurishiga e'tiroz bildirib, "eplasang - sudra aravangni... eplamasang - egamning dargohi bepoyon!.." — deya Odil yuvvoshni o'limga mahkum etib, uni ayovsiz tanqid etadi. Besuyak tili tufayli Qurbonalining begunoh otasi ikki marotaba qamalib chiqqan. Shu bois otasi qalbiga cho'kkan qo'rquv vahimasi, og'iz ichidagi bir parcha etni dushman sifatida talqin etish prinsipi bora-bora farzand yuragini ham zabt etadi. Go'yoki, qo'rquv - nasliy-irsiy kasallik kabi avlodddan-avlodga o'tib, zabonsizlik, tilini ichiga yutib yashash san'atini egallagan qahramonning oilaviy shajarasi ko'z oldimizda gavdalanadi. Aslida, Qurbonali oilasiga xos bu irsiy kasallikka butun boshli o'zbek millati ham chalingan. Hikoyadagi kosa tagidagi nimkosa g'oyalardan biri millat ruhiyatiga singib ketgan indamaslik kasalini yozuvchi asarda so'z bilan ifodalamagan "sut bilan kirgan, jon bilan chiqar" - xalq maqoli bilan izohlaydi. Qurbonali

⁶ Do'stmuhammad X. Jim o'tirgan odam. // Beozor qushning qarg'ishi. Toshkent: SHark, 2006. - B. 217.

ehtiyotkorlikka, tilni behuda valdiratmaslikka shu darajada berilib ketadiki, natijada u odamovi, insoniy sifatlardan mahrum bo'lib qolgan ayanchli qiyofaga tushib qoladi. Mahoratli adib Qurbonali obrazini satirik obraz darajasiga olib chiqib tasvirlaydi: "Bunday damlarda Qurbonali ich-ichidan xoxolab kuladi. Kuladi-yu, sirtiga chiqarmaydi, shunday shodumon holatida ham qovog'i soliq, sipo, vazmin va beozor qiyofasiga sodiq qoladi. Qiyofa qanchalik to'ng bo'lsa, huda-behudaga gaplashaveradigan, otamlashaveradigan kimsalar shuncha kamayadi. Qurbonali elimdek yopishqoq tanish- notanishlardan etti gaz nari yuradi"⁷. Mazkur psixologik portretida X.Do'stmuhammadning qahramon ruhiy holatini mahorat bilan aks ettirishda hajviy proza va satirik obraz yaratishda ustasi farang rus yozuvchilari Gogol, A.P.Chexov hamda taniqli o'zbek adiblari A.Qodiriy, A.Qahhor, S.Ahmad singari hikoyanavislarning ijodiy tajribalari unga qo'l kelganligi yaqqol sezilib turibdi. Qurbonali besamar hayoti natijasida "mahallaning so'pisi" darajasigagina chiqa olgan oddiy olim, u burnining tagidan narini ko'ra olmadi. Aslida, olim shaxs dunyo ilmidan, dunyo afkor ommasi qiziqayotgan muammolar bilan qiziq olishi, ular bilan bahslashishi, juda bo'lmaganda ular darajasida fikrlay olishi lozim edi. Adib Qurbonalining hash-pash deguncha o'tib ketgan besamara umri misolida bugungi kun ziyolisini jadalroq mehnat qilishga, faqat tor doirada emas, xorij ilmini ham lol qoldiradigan darajada ijod etish darkorligini uqtirayotgandek — hissiyot uyg'otadi. Hikoyada Kimsan, marmar zina, telexronitel kabi so'zlarga urg'u berib borilar ekan, shular orasida Qurbonalining shaxsiy qo'riqchisi bor, degan gumonlarga borib qolgan hammaslamlarning gap-so'zlaridagi ikkinchi tagma'noli so'zni uqib olishimiz mumkin. Bu aslida butun umr ta'qib, mustamlaka sharoitida yashagan o'zbekning o'tmishiga ishora. Qahramon ismining "Qurbonali" deb atalishida ham aniq badiiy-estetik maqsad ko'zlanganligi muqarrar. Zero, o'zbek asrlar osha millionlab qurbonlar berish evaziga, katta ma'naviy, ijtimoiy, siyosiy, huquqiy yo'qotishlar hisobiga yashab kelgan. Qurbonali ham shularning bittasi. Asar yakunida kasalxonadan yarim tan, yarim jon bo'lib qaytib kelgan Qurbonali — asrlar

⁷ O'sha asar. —B.194.

davomida jisman va ma'nan majruh etilgan xalq timsolini ifodalasa, uning qo'shnisi To'lash tarashaning izsiz yo'qolishi - hikoyadagi mantiqan tugallanmagan yakun o'zbek millatining kelajaqdagi noma'lum qismatiga ishora deyish o'rinli. Kuzatganimizdek, X.Do'stmuhammad hikoyalari qavatma-qavat ma'noga ega, shunga ko'ra adib ijodini polifonik badiiy tafakkurga ega asarlar sifatida baholash mumkin. Adabiyotshunos B.Sarimsoqov metafora, metaforik obrazning nazariy tabiati va xususiyati haqida yozar ekan, shunday deydi: "Badiiy asardagi kechinma shiddatini oshirish metaforik obrazga xos. ...Metafora ijodkorning u yoki bu narsa, voqea-hodisaga nisbatan o'zining salbiy munosabatini to'g'ridan-to'g'ri ifodalash uchun ham xizmat etadi"⁸.

X.Do'stmuhammadning "Jajman" hikoyasida badiiy obrazlarni g'ayrioddiy vaziyatlar qurshovida tasvir etish orqali milliy xarakter yaratish tamoyili etakchilik qiladi. SHuningdek, yozuvchi turli g'ayrioddiy vaziyatlarga qahramonning munosabatini ko'rsatar ekan, bu bilan o'quvchini umuminsoniy, umumfalsafiy xulosalarga undaydi. "Jajman"da bozor hayot ramzi sifatida tasvirlanadi. Jajman deb nomlanuvchi nojins maxluqning bozor ahli orasiga solgan g'avg'osi hikoyaning asosiy syujetini tashkil etadi. "X.Do'stmuhammad "Jajman"dagi maxluqni romanga ko'chirdi. Xo'sh, bu maxluq, nojins qaydan binoga keldi? Bozor ahlining aksariyati nojins yo "allaqaysi yurtlardan er qazib kelgan" yo "hibsxonadagi aristonlar bitidan urchigan" yo "atrofdagi odamlar illatidan vujudga kelgan" deb biladi; birgina Zardusht bobo uning odamlar vujudidagi hibsxonadan qochganini tan ola biladi", deb yozadi adabiyotshunos olim D.Quronov muallifning "Bozor" romani haqida.⁹

Darhaqiqat, "Jajman" hikoyasi osoyishta kechayotgan bozor hayotidagi mavhum bir sarosima tasviri bilan boshlanadi:

- YOmonning kuchi men yapaloqqa etibdi-da! H-ah, sag'irri haqqi ursin-a!

⁸ Sarimsoqov B. Badiiylik asoslari va mezonlari. Toshkent: S.Ahmedova xususiy nashriyoti, 2004. — B. 46-47.

⁹ Normatov U., Quronov D. Romanning yangi umri // Jahon adabiyoti. - 2001. - № 3.

Tong sahardagi bu alamli qarg'ishdan tim ichi oyoqqa qalqdi..."¹⁰ Bu va bundan keyin ro'y beradigan barcha voqealar markazida Jajman turadi. Bu maxluq goh oshkora, goh pinhon ravishda bozordagi savdogarlarning narsalarini o'g'irlaydi. Lahza o'tmay birov mayizidan, birov turshagidan, birov pulidan ayrilib qolaveradi. Bozor ahli faqat ko'rgulik ro'y bergan daqiqalardagina, shunda ham bir lahza hushyor tortishadi. Jabrdiydani yupatgach, o'zlaricha yordam bergan bo'lishadi. Zardusht bobo uchraganida ham ramziy ma'no bor. YOzuvchi g'oyasiga ko'ra insoniyat hayotida yuz beradigan salbiy hodisalarni anglash uchun avvalo pok qalb va iymon e'tiqod bo'lishi kerak. Bozor ahli orasida esa bunday bahoga faqat Zardusht bobo munosib ko'ringan.

"Bobo bu g'aroyib jondorning basharasini aniq-tiniq ko'rdi-maxluqning ko'zi, qulog'i, tumshug'i dam sichqonnikiga, dam tulkinikiga o'xshab tinimsiz tovlanar edi. "Olmaxon-ku!" deb yubordi ichida bobo va shu zahoti boshini chayqab, "tulki minan sichqondan tarqagan ko'rinadi", degan xayolga bordi, birpas jim turgach esa, "Qorni kenguruniki... - dedi pichirlab, lekin maxluq qaddini rostlab ikki oyoqlab borayotganini ko'rib, "YO odamdan tarqaganmikan?!" deb o'yladi va beixtiyor shak keltirib qo'ygandek shoshib yoqasiga tupladi".¹¹

Filologiya fanlari doktori D.Quronovning mushohadasida jon bor. Haqiqatdan ham, Jajman "odamlar vujudidagi xibsonadan qochgan" NAFSning ramzi. SHarq falsafasiga ko'ra nafs ikki xil bo'ladi: shaytoniy nafs, insoniy nafs. Qachonki inson iymondan, dindan voz kechib, shayton izidan yursa, unda shaytoniy nafs vujudga keladi. Keyin er yuzini yovuzlik egallaydi. Qiyomat yaqinlashadi. Agar inson shaytoniy nafsni sabr ipi bilan jilovlay olsa, rahmoniy nafsni pesha tutsa, insoniyatning hayoti farovonlashadi. Ruhi yuksaladi. Komil inson maqomiga yo'naladi.

Buyuk mutafakkir Jaloliddin Rumiyning "Ichindagi ichindadir" asarida bu haqda shunday yozilgan: "Inson gapiruvchi hayvondir", deyishadi. Asl ma'nosi shudir: "Insondagi hayvoniylilikning ozuqasi shahvat qo'zg'otuvchi narsalar va

¹⁰ DO'stmuhammad X. Jajman. - TOSHKENT: SHarQ, 1995. - B. 204-208.

¹¹ DO'stmuhammad X. Jajman. - TOSHKENT: SHarQ, 1995. -B. 204-208.

orzulardir, insoniylikning ozuqasi esa bilim, hikmat va Tangrining Jamolidir. Insonning insonligi nafsdan, hayvonligi esa aqldan qochmog'i ila belgilanadir.”¹² Bu aslida Rumi o'ylab topgan gap ham emas, balki insoniyat hayotining mazmun va mohiyatidir. Bu hikmat mifologiyada ezgulik va yovuzlik o'rtasidagi kurash, G'arb falsafasida dialektik qonuniyat deb ataladi. Zarradek yaxshilikdan eng ulug'vor ezgulikkacha, misqoldek yomonlikdan eng tuban yovuzlikkacha mana shu qonuniyatga bo'ysunadi.

X.Do'stmuhammad asarining yangiligi shundaki, u qadim SHarq-Zardushtiylik falsafasini badiiy voqelikka singdirib yuborishga erishilgan Nafs ramzi orqali milliy xarakterning falsafiy qiyofasini chizgan.

Asarda Jajmandan boshqa biror obrazning portreti chizilmaydi. YOzuvchi ularning barchasini o'quvchining o'z tasavvuriga havola qiladi. Jajmanning portretini esa Zardusht bobo tilidan mukammal chizadi. Jajmanda er yuzidagi barcha jonzodlar sifati mujassam. SHu bois Zardusht bobo Jajmanni ko'rgan ilk daqiqalarida uni nimaga o'xshatishini bilmay ikkilanib qoladi. Bizningcha, bu o'rinda yozuvchi yana ramzga murojaat qiladi. Jajmanning bir paytning o'zida ham hech narsaga ham biror narsaga o'xshashi-nafsning jonli mavjudot uchun xarakterli ekaniga ishora. CHunki nafs berilmagan maxluqning o'zi yo'q. SHu bilan birga nafs talab ehtiyoji chegarasiz. Unga qancha erk berilsa, shuncha ehtiyoji ortaveradi. Jajman deb atalgan maxluq ham xuddi shunday xususiyatga ega.

Qadim rivoyatlarda aytilishicha, Tangri nafsni yaratib bo'lgach, undan “Men kimman?”, - deb so'rabdi. SHunda nafs “Sen bu sensan, men bu menman”, deb javob beribdi. Bunday shakkoklikdan qahri kelgan Tangri uni ming yil do'zax olovida kuydiribdi va yana o'sha savolni beribdi. Javob o'sha-o'sha, o'zgarmabdi. YAna ming yillik do'zax azobi belgilanibdi hamki, nafsning javobi o'zgarmabdi. Oxirgi marta nafs yuz ming yillik azobga qo'yilibdi. SHundan so'nggina u tangrini o'zining yaratuvchisi, deb tan olibdi. SHu tufayli inson faqat o'zining nafi sabab,

¹² Rumi Jaloliddin. Ichindagi ichindadir (Turk tilidan U. Abduvahob tarjimasi) Toshkent: YOzuvchi. 1997. 57-bet.

dunyo azoblariga, oxirida do'zaxga giriftor bo'lar ekan. Jajman ham yovuzlik ramzi Ahriman homiyligida harakat qiladi. Buni faqat Zardusht bobogina biladi.

Ramziylik nuqtai nazaridan bozor-bu insoniyatning hayot tarzi, hikoyada tasvirlangan tim devori yovuzlik va ezgulik o'rtasidagi chegara. Bu devor tinimsiz gursillab turadi. Uning orqasida yashaydigan Ahriman devorni buzib insonlar dunyosining o'zining qorong'u dunyosiga qo'shishga intiladi. Asar voqealari rivojlangan sayin tim devorining gursillashi ham zo'rayib boradi. Hikoyaning boshlanishda: "Bobo beixtiyor ustma-ust taxlangan qanor-qoplarning cho'g'ini chamaladi, yana picha yurdi, so'ng sotuvchi ahli siyraklashgani bois tim adog'iga-devorga etmay iziga qaytdi. Qaytayotib orqa tomondan kimdir devorni mushlayotgandek gursillagan tovushni eshitadi." Jajman haqidagi gap so'zlar haqiqatga aylanadi. Odamlar goh uni tushunmoqchi bo'ladi, goh erkalatashadi, goh uning qiliqlaridan hayratga tushadi. Hatto turshakfurushlardan biri;

- Manashi sichqonbashara bilan kelishaylik. Eganicha esin, angishvonadek qorniga dunyoni yutvormas!", degan taklifni ham qiladi. YONG'oqfurush Jajmanni "Yo'qol-e!" deb haydab soladi. (Bu nafsga ma'lum muddat kishan solishni eslatdi) Timdoshlar esa Bobo yong'oqfurushni ta'na-malomatlarga ko'mib yuborishadi; "Ermak edi, mana Tim huvillab qoldi, to'rtta yong'oqni ko'zingiz qiymasa o'zimiz boqardik" deyishadi.¹³

Hikoya syujetining shu joyida beriladigan Zardusht boboning tushi tasvirida ham ramziy ma'no bor. Zardusht bobo tushida Otash momosini (Otash- olov – zardushtiylikda hayot ramzi) moviy ko'z dev hovuchida olib ketadi. Uyg'onganida momosining o'lib qolganini ko'radi. Bu tushdan ajdodlar sabog'ini unutish, o'zligini unutish, nafsga qul bo'lishdir, degan xulosa chiqadi. Go'yo pokdomon Zardusht boboni pokdomon Otash momo falokatlardan ogohlantiradi.

Bozorda esa Jajmanning ikkinchi xuruji boshlanadi. Endi barcha bozor ahli Bobo yong'oqfurushning o'g'li so'zamol yong'oqfurush boshchiligida Jajmanni o'ldirish qasdiga tushadilar. Jiyydafurushning da'vati bilan Zardusht bobodan

¹³ DO'stmuhammad X. Jajman. Toshkent: 1995. 205-212-betlar.

fotiha olishga keladilar: “Bobo ro’parasida ilhaq turgan fuqaro dardiga Axuramazdaning o’zidan madad so’ramoqqa lab juftladi, lafz aytishga ulgurmay tim adog’idagi devor ortidan zorlangannomo gursillagan shovqin chalindi qulog’iga.”¹⁴ Olomon fotiha olishga ulgurmaydi, avvalo Ahrimanning po’pisasi, ikkinchidan tim oralab g’imirlab qolgan Jajmanning daragi olomonni bu xayrli duodan benasib qoldiradi. Olomon yana boboni yolg’iz qoldirib o’zi bilgan yo’ldan ketadi. Keyingi gursillash bozorchilar yana o’z tashvishlari, oldi-sotdilari bilan ovora bo’lgan paytlarida takrorlanadi. Yana bu ovozni bobodan boshqa hech kim eshitmaydi. Gursillash esa tobora kuchaya boradi: “(Bobo) tim adog’iga orqa o’girib turgan bo’lsa-da, yana gursillagan shovqinni eshitdi. Erga qoqilgandek tik turib butun vujudi quloq bo’lib tingladi: gurs...gurs...gurs...” Olomon hech narsadan bexabar, Jajmanni haydab yuborganidan: “Jajman endi qorasini ko’rsatmaydi”, deb xursand. Zardusht boboning esa tashvishi kundan-kun ortib boradi: “Jajman yolg’izmi yo uning urug’i ko’pmikan? YOxud, hamma yoqni Jajman bosib ketsa qandoq qiladi, odamlar?” degan o’yining oxiriga etolmaydi.

Jajmanning naqadar eb to’ymasligi sirini ham birinchi bo’lib Zardusht bobo anglaydi. Ilk bor o’shanda Otash momosini olib ketgan dahshatli hovuchni ko’radi: “Bobo hushini yig’ib ulgurmay Jajman devorga suyab taxlangan qoplarga tirmashib yuqoriga zippillab chiqib ketdi. Darvoza tepasiga etganida o’sha erdagi devor tuynugidan har biri sandaldek-sandaldek qo’shaloq hovuch paydo bo’ldi. Jajman qopchig’ini ko’tarib hovuchga ag’dardi, ustidan changalidagi pulni tashladi, hovuchlar shu zahoti ko’zdan yo’qoldi.”¹⁵

Jajmanga qarshi olomonning qahri ortgani sayin gursillash zo’raya boradi. Bozorni Jajmanga qarshi dorilab, teshiklarni sim-to’r bilan bekitilsa ham, bu balodan qutulisha olmadi. Jajmanni tutganga katta mukofot hozirlandi. SHu soniyalarda: “Zardusht boboning qulog’iga gursillagan tovush hiyla balandroq eshitila boshladi.”¹⁶ Bu esa falokatning yaqinligidan dalolat edi. Pistafurush

¹⁴ O’sha asar, 214-217-betlar.

¹⁵ DO’stmuhammad X. O’sha asar, 213-215-betlar.
² O’sha asar, 213-215-betlar.

Zardusht boboga o'dag'ayladi: " Baribir tutamiz! Siz ko'maklashmasangiz ham bu ablahning urug'ini quritamiz" Zardusht bobo faqat duo qiladi: "Marhamatingni darig' tutma, Axuramazda! Ko'ngillarini o'zing munavvar qilgaysan..."

Olomon Jajmanni tutadi. CHalajon holatga keltiradi. Gursillash yanada zo'rayadi. Jajman o'ldi deb olomon tomonidan hukm o'qilgan payt, bexosdan u tilga kiradi:

- Lo...kila!... Loki...la!" Izdihom shu vaziyatdagina Zardusht boboga ehtiyoj sezadi. Biroq, endi kech edi. Gursillash o'rniga endi tim devori o'pirilib tushadi, olomon Zardusht bobo allaqachon anglagan va ularni ogohlantirishga uringan voqeadan voqif bo'ladi. Qora tuynukdan Ahrimanning qo'sh hovuchi chiqib er yuziga yana bir oldingidan durkinroq, kattaroq Jajmanni tashlaydi.

"Jajman" to'la-to'kis ramziy-falsafiy asar. Bu erda Bozor -dunyoviy hayot, Jajman - nafs, Zardusht bobo - iymon, e'tiqod, olomon - ma'rifatsizlik ramzi. Hikoyada e'tibor qilinsa, Zardusht boboning ogohlantirishlari, nidolarini bozor ahli eshitmaydi. Eshitmagani uchun ham nafs (Jajman)ni jaholat bilan engmoqchi bo'ladilar. Lekin SHarq falsafasida nafsni faqat ma'rifat bilan engish mumkin, deyishadi. Ma'rifatga erishish esa yaratganni anglash, iymon-e'tiqod orqali bo'ladi. Zardusht bobo olomonning biror murojaatiga javob bermaydi, faqat Axuramazdadan madad so'raydi. Johil olomonga iymon nasib etmaydi. Iymonsiz, ma'rifatsiz inson esa nafsini engolmaydi. Jajmanlar xurujiga muhtalo bo'laveradi.

Xullas, X. Do'stmuhammadning "Jajman" hikoyasida yuksak darajadagi SHarq falsafasi mujassamlangan. Bu bilan yozuvchi millat tabiatidagi salbiy xususiyatlarni ko'rsatadi. Nafs orqasidan kelishi mumkin bo'lgan falokatlardan insoniyatni ogohlantiradi. Zardushtiylik ta'limoti, undagi afsonaviy obrazlar (Axuramazda, Ahriman) yozuvchi uchun bir ramziy, badiiy detalʼ vazifasini bajargan.

1.2. Hikoyalarda hayot va o'lim muammosi talqini

X.Do'stmuhammad "Jimjitxonaga yo'l" hikoyasining yozilish tarixi haqida shunday izohni keltiradi: "Ko'p yillar bo'ldi italiyalik mashhur adib Dino

Busattining “Etti qavat” hikoyasi ta’sirida yuraman. Nihoyat, ushbu favqulodda o’ziga xos hikoyani erkin tarjima qalqib, unga “nazira” o’laroq hikoya bitdim”.¹⁷

Izohda “nazira” so’zi tirnoq ichiga olingan. SHuning o’zi ham “Jimjitxonaga yo’l” asari tom ma’nodagi nazira emasligidan dalolat beradi. Mumtoz she’riyatimizda nazira yozish an’anasi o’ta rivojlangan edi. Ularda mashhur bir she’rning shakli (vazni, qofiyasi) olinib unga shunga yaqin boshqa bir mazmun yuklangan. Bunga Umarxon she’rlariga Fazliy Namangoniy bag’ishlagan she’rlar yorqin misol bo’la oladi. Albatta, nazira yozilishida biror she’rning mazmun va shakl jihatlari o’ta mukammal ekanligi sabab bo’ladi. Nazira bag’ishlovchi o’sha she’rdan qattiq ta’sirlanishi natijasida yangi she’r vujudga keladi. X.Do’stmuhammad ham “Etti qavat” hikoyasiga nazira bag’ishlar ekan undan ko’p yillar mutaassir bo’lib yurganini aytadi. “Etti qavat” hikoyasining erkin tarjimasi bilan o’z hikoyasini ketma-ketlikda beradi. Bu esa nazirachilik an’analarida uchramaydigan holat. SHuning bilan birga yozuvchining bunday ketma-ketlikdan ko’zlagan maqsadi muqoyasadir. Butun asar mazmun-mohiyatini, o’ziga xosligini ham muqoyasa tashkil etadi. Asarning bu jihati ham nazira janridan tubdan farq qilib asarning umumiy yo’nalishiga, yozuvchi g’oyasiga xizmat etadi. Muallifning badiiy maqsadi esa hikoyani o’qish, tahlil etish davomida ochila boradi.

“Etti qavat” hikoyasi qahramoni Dino Korte, “Jimjitxonaga yo’l” qahramoni Zohid YAqin ismli kishilar. Ularning har ikkisi arziyas kasallik bilan kasalxonaga yotishadi. Har ikki kasalxona binosi ham etti qavatli. Faqat kasalxonada Dino Korteni ettinchi qavatga, Zohid YAqinni birinchi qavatga joylashtirishadi. Kasalxona professori Dino Kortening kasali haqida shunday deydi: “Xastalik alomatlari borlikka bor, deya tushuntirdi professor, - lekin xavotirlanarli joyi yo’q, nari borsa, ikki yoki uch haftada o’tadi-ketadi.

SHu bir og’iz lutfning o’zi Dino Korteni tetiklashtirib yubordi. Demak, uni so’qir xavotir ezayotgan ekan. Mana, hammasi oydinlashdi: ikki hafta, juda cho’zilsa uch hafta yotadi-yu, qishlog’iga qaytadi”.¹⁸ Zohid YAqinga bundan ham

¹⁷ Do’stmuhammad X. Jimjitxonaga yo’l //Tafakkur. 2001. № 3.

¹⁸ Do’stmuhammad X. Jimjitxonaga yo’l. //Tafakkur. 2001. № 3. 69-71-betlar.

engilroq tashxis qo'yishadi. Kasalxonada ishlaydigan qaynisi-O'ktam unga shunday tasallinamo so'zlarni aytadi: "Birov sizni kasal dedimi? Professor o'zimizning domla. Bir og'iz aytgandim, mana, tinch, eng jonon palata sizniki-da! Odamlar yillab navbat kutadi, siz uchun esa... Odam dam olishi ham kerak-da. Ha, aytgancha, akangizni o'zim davolayman, qarovsiz qoldirmaymiz, dedi domla".¹⁹ Demak, boshlanishda har ikki - G'arb va SHarq kishisining vaziyati bir xil. Dino Korte ham Zohid YAqin ham u qadar xavfli kasal emas. Bundan har ikkisining ham ko'ngli xotirjam. Kasalxona sharoiti, ayniqsa, palatalardagi tozalik, osoyishtalik va tartib ularning ikkalasiga ham yoqadi. Hamshiralarning muomalasi ko'ngillarini tog'day ko'taradi.

Biroq palatalar o'zgargan sari u ikki kasal ruhiyatidagi farq ochila boradi. Dino Kortega bir bolalik xotin kelishi bahonasi bilan pastga-oltinchi qavatdagi palataga ko'chirilishini o'ta noziklik va sipolik bilan xabar qilishganida u qo'rqib ketadi. Hatto norozilik bildiradi: "U bo'lar ish bo'lganini, rozilik bildirib qo'ygach, ayol kishi oldida subutsizlik qilishga oriyati yo'l qo'ymaganini tan oldi. Baribir professorga shikoyat qilishni diliga tugib qo'yganida, bir erkagu bir ayol kirib uning lash-lushini saranjomlab ko'chishga hozirlab ulgurishdi".

Zohid YAqin esa ikkinchi qavatga ko'chirilar ekan, buni xushnudlik bilan qabul qiladi. Uni ikkinchi qavatdagi palata, ayniqsa, bu qavat hamshirasi SHavqiyaning go'zalligi rom etadi. Dino Korte esa sal o'tib beshinchi qavatga tushiriladi. Uning jismi ham, ruhi ham toboro og'irlasha boradi. Birinchi bor beshinchi qavatga kelganda unga "siz qavatning eng sog'lom bemorisiz" deyishadi. Oradan bir necha kun o'tgach, Dino Korte o'zining ahvoli yana og'irlashayotganini, oyog'iga bedavo "qirmizi toshma" toshayotganini sezib qoladi. Vrachga murojaat qilganida shifokor: "Bizning shifoxonada bemorlarni davolash uchun barcha sharoit muhayyo! Faqat bitta lekini bor. Noqulayligi shundaki, Gamma nurlar to'rtinchi qavatda. Kuniga uch mahal olishingiz uchun qavatma-qavat chiqib tushishingizni shaxsan men maslahat bermasdim."²⁰

¹⁹ Do'stmuhammad X. O'sha manba. 69-71-betlar.

²⁰ Do'stmuhammad X. Jimjitxonaga yo'l //Tafakkur. 2001. № 3. 78-79-betlar.

SHunday qilib, yana silliq yo'l- aldov bilan Dino Korte to'rtinchi qavatga ko'chirildi.

Zohid YAqinni uchinchi qavatga ko'chirishganda "Professor Zohid YAqin norozilanishini, hatto malomat yog'dirishini kutgan edi. Aksincha, bemor zarracha og'rinmadi, zorlanmadi ham". Dino Korte ahvolidan shikoyat qilib xotiniga paydar-pay xat jo'natib turadi. Zohid YAqin esa o'zining ahvoliga achinish bilan qarayotgan, bezovtalanayotgan xotiniga tasalli beradi:

- Robiya, sen baraka top, onasi. O'g'lim ancha esli bo'p qoldi. Lekin hali tepamda odam qarab o'tiradigan ahvolga tushmadim. Qaytaga ruhim har qachongidan tetik. Xudoga shukur."²¹

Zohid YAqin to'rtinchi qavatga chiqarishganda ham ruhan tetik bo'ladi. Hatto o'z oyog'i, o'z ixtiyori bilan chiqib boradi. Dino Korte esa ikkinchi qavatga olib chiqmoqchi bo'lganlarida yig'lab yuboradi. Vrachlar uni zo'r berib oldiniga avrashga urinardilar. Ruhan o'limni tan olib qo'ygan Dino Korte tamom tushkun va g'ayri tabiiy ravishda so'nggi qavatdan bir qavat yuqoriga ikkinchi qavatga tushishga rozi bo'ladi. Ochig'i, Dino Kortening vrachlar to'qigan yolg'onlarga, firiblarga bo'ysunmasdan iloji ham yo'q edi. Qavatdan-qavatga, palatadan-palataga ko'chgan sari Dino Kortega nisbatan o'quvchi ko'nglida achinish tuyg'usi ortib boradi. Birinchi qavatga tushishi muqarrar bo'lgach, o'quvchi ko'z o'ngida u tragik taqdir egasiga aylanadi.

Zohid YAqinni beshinchi qavatda Mujohida, oltinchi qavatda Mushohida, nihoyat ettinchi qavatda Joziba ismli hamshiralar kutib olishadi. U yuqoriga ko'tarilgan sari jisman zaiflashayotganligini, moddiy dunyoda nasibasi uzilayotganini aniq biladi. Lekin bu uning ruhini so'ndirish o'rniga tetiklashtiradi.

Dino Korteni kasalxona vrachlari qabrga tiqqandek birinchi qavatga uloqtirishgan bo'lsa, Zohid YAqin ettinchi qavatga ko'tarilganda hamma unga havas qiladi. Vrachlar uni farishtaga qiyoslashadi. Holbuki, u jisman o'layotgan edi:

²¹ Do'stmuhammad X. O'sha asar. 78-79-betlar.

“Farishta bo’lmasa shu ergacha shu ergacha ko’tarilarmidi?! Ettinchi qavatga-ya!”. Professor uning shaxsiyatini hammadan ko’ra yuqoriroq qo’yadi. Uning o’limini kulfat deb qabul qilishiga moyil kasbdoshlariga qarata:

“- SHovqin ko’tarmang, birodarlar!.(O’lim) Siz, biz uchun emas, bemor uchun Joziba. - Professorning bo’g’iq, lekin salobatli tovushi past-baland ivir-shivirlarni bosib tushdi. – Zohidboyga-Zohid YAqindek insonlargagina nasib etadigan joziba bu.” Hikoya muallifning ushbu so’zlari bilan yakun topadi: “O’sha kuni bir-biridan olis Mag’rib va Mashriq shahrida bir paytning o’zida ikki bemor bandalikni bajo keltiradi”.²² Muallif SHarq va Farbga mansub ikki shaxs taqdirini yonma-yon tasvirlar ekan, na hikoyaning ichida, na xotima qismida bu voqealarga o’z munosabatini bildirmaydi. Xulosa qilishni, nazira hikoya ichidagi ramziylikni anglashni o’quvchi hukmiga havola etadi. SHu jihati bilan ham bu hikoya an’anaviy o’zbek hikoyachiligidan tubdan farq qiladi. Qissadan hissa chiqarish, o’quvchini ma’lum xulosaga undash o’zbek xalq an’anaviy hikoyachiligiga, qolaversa, XX asr hikoyachiligiga ham xos xususiyat ekanligi sir emas.

X.Do’stmuhammad Dino Busati kabi kasalxona, undagi qavatlariga ramziy ma’no yuklaydi. Har ikki yozuvchi kasalxona deyilganda hayotni nazarda tutadilar. Dino Busati G’arb kishisining o’limga tomon turmush aldovlariga uchib, hayot lazzatlariga tashna bo’lib, tobora tubanlashib borishini Dino Korte misolida ko’rsatadi. Uning talqinida G’arb kishisi uchun o’lim fojia. O’lim-abadiy qorong’ulik, yo’qlik. X.Do’stmuhammad esa hayot va o’lim muammosiga SHarq falsafasi asosida yondashadi. Ma’lum darajada tasavvuf ta’limotiga suyanadi. Masalan, Zohid nomi ham so’fiyona, ilk so’fiylar zohidlar deb atalgan. Zohid YAqin o’lim sari borar ekan, ruhi yanada tetiklashayotganini qalbida bir quvonch paydo bo’layotganini qayta-qayta takrorlaydi. SHu bilan birga, uni har qavatda ramziy nomga ega bo’lgan hamshiralar kutib olishadi. Ikkinchi qavatda SHavqiya-hayotning zavq-shavqli ekaniga ishora. Beshinchi qavatda-Mujohida, arabcha «jahd» so’zidan olingan bo’lib, hayot zavqidan yuz o’girishga jahd qilish

²² Do’stmuhammad X. Jimjitxonaga yo’l //Tafakkur. 2001. № 3. B. 78-79-betlar.

ma'nosida. Oltinchi qavatda-Mushohida, dunyo hayotiga ibrat ko'zi bilan boqishni bildiradi. Nihoyat ettinchi qavat hamshirasi boqiy dunyoning jozibasini bildiradi. Qachon inson hayot zavq-shavqiga aldanmasdan umrini imon-e'tiqod bilan o'tkazsa, o'lim uning uchun fojia bo'la olmaydi. U foni hayotdan baqo dunyosiga xotirjam o'tadi. O'limni boqiylik yo'lidagi bir pog'ona, deb qabul qiladi.

Xullas, X.Do'stmuhammad SHarq va G'arb ma'naviy dunyosini qiyoslaydi. Insoniyat hayoti va o'limi haqida sharqona tafakkur yuritadi. Umrning mazmunini moddiy olam jozibalariga qul bo'lishda emas, ezgulik, imon-e'tiqodda ekanini badiiy asoslab beradi. Bir so'z bilan aytganda, sharqona hayot falsafasini zamonaviy shaklda qayta tiriltiradi. XX asr o'zbek zamonaviy adabiyoti uchun original talqinga erishadi.

Hozirgi o'zbek adabiyotining yorqin iste'dodlaridan biri Isajon Sultondir. U nasrning hikoya, qissa, roman kabi janrlarida ijod qilib, bugungi adabiy jarayonning faol ijodkori sifatida kitobxonlar qalbidan o'rin olishga ulgurdi. Isajon Sulton ijodiga nazar tashlaydigan bo'lsak, uning asarlarining o'ziga xos kompozitsiyaga ega ekanligi, syujetida qadim milliy an'analarimizning yangicha talqini bo'y ko'rsatib turganiga amin bo'lamiz. YOzuvchining asarlarini tushunish uchun kitobxon diniy va dunyoviy bilimlardan xabardor bo'lishi zarur. Aks holda "yozuvchi asarda o'ta falsafaga berilib ketgan" deya noto'g'ri xulosaga kelish mumkin.

I.Sultonning "Boqiy darbadar", "Ozod", "Munojot", "Orif" va boshqa asarlarida inson hayotida ro'y berishi mumkin bo'lgan turli voqea hodisalar badiiy-falsafiy usullarda, kutilmagan echimlar orqali ifodalanadi.

Fikrimizni yozuvchining "Bog'i eram hikoyalar"i turkumidan o'rin olgan "TODD" hikoyasi misolida isbotlashga harakat qilamiz. Ma'lumki, janr talabiga ko'ra hikoyada qahramon emas, balki voqea maqsad hisoblanadi. Hikoyaga Mamasiddiq pishshiqning hayot tarzi va bu orqali roviy yigitning hayot haqidagi fikr qarashlari asos qilib olingan. Hikoyachi bizning zamondoshimiz. Buni hikoyadan anglaymiz: "...zamon tez, vaqtu umr shovullab o'tib ketayotir, aytar

gapingizni aytib yo ulgurasiz, yo yo 'q..."²³. Ha, biz tezkor zamonda yashayapmiz. Insoniyat umr deb atalmish ne'matni goh anglab, gohida anglamay o'tib boryapti. Asar markazida **hech bir falsafa hayot hikmatini izohlab bera olmaydi, hayot hamisha haq va rang barang, tovlanuvchi, falsafa esa, uning faqatgina soyasi,** degan g'oya turadi.

Asar avvalida roviy yigitning falsafaga juda qiziqishi, qaysidir kitobda o'qigani nemischa jumla va shu jumla ichida kelgan "TODD" so'zi shuuriga mahkam yopishib olgani, tasodifan bu so'zning ma'nosini anglab qolgani voqeasi hikoya qilinadi. So'ngra muallif etti yil aval kechgan voqealarni tasvirlay boshlaydi. Rovi yigit Mamasiddiq pishiqning hayot tarzi bilan tanishtiradi. CHol hayoti davomida juda ko'p qiyinchiliklarni boshdan o'tkazadi. Urushga boradi. U erda asir tushib qoladi va boshidan og'ir kunlarni kechiradi. Urushdan qaytib ham tinim bilmaydi. Butun hayoti qimir-qimir bilan o'tadi. Hikoyada konslager ofiseri Vilgelm Todd obrazi ham kiritilgan. U o'ta beshavqat, asirlarni tinmay yugurtiradi, yiqilganlari, marraga yetib kelolmaganlarini o'limga mahkum etadi. Va u shunday gaplarni aytadi: *"Senlar meni yomon ko'rasanlar, ammo hayot mendan ko'ra beshavqat. U senga marra qaydaligini aytmaydi. Barini o'zing topasan. Bu gal senlar marraga yiqilmay yetib kelib, kechgacha yashash huquqini qo'lga kiritding, xolos. Keyingi hayotingni esa, kechqurunggi yugurish hal qiladi"*.²⁴ Ofiserning ushbu gaplari hayotning achchiq haqiqatini bayon qiladi. Darhaqiqat, chol butun umri davomida hayot marrasi tomonga yuguradi. Biror marta ham dam olmaydi. Oila, ro'zg'or tashvishlari bilan yashaydi. Hayot marrasiga yetib keladi. Bu marra o'lim edi. CHolning vafot etganini yozuvchi quyidagicha tasvirlaydi: *"....ko'zida ikki tomchi sariq yosh oqdi. Bir nima demoqchi bo'lib, qiynaldi. Labidan zaif bir puf chiqdi. CHiqqan nafas qaytib kirmadi."*²⁵

YOzuvchi voqealar orqali o'n sakkiz ming olamni yaratgan Parvardigor yer yuzidagi barcha narsalarni Inson uchun yaratib, unga hayot degan ne'matni ato etgani, ammo bu hayot faqat elib yugurish, mehnat tagida ezilish, dard chekish

²³ I.Sulton. Ozod. / TOOD. Toshkent: SHarq, 2012. –B. 373.

²⁴ O'sha asar. –B.376

²⁵ O'sha asar. –B.378

uchun berilmagani, aksincha, barcha go'zalliklardan bahramand bo'lish, ezguliklar qilish, mehr muhabbatga oshno yashash uchun berilganini ta'kidlamochi bo'ladi. Muallif Manzilga yetganida Mamasiddiq chol kabi ko'zda sariq (achchiq) yosh bilan emas, balki, "arzigulik yo'lni bosib o'tdim" deya, mehr, shukronalik tabassumi bilan vidolashishni badiiy tarzda uqtiradi.

Yigit "TOOD "so'zining nemischadan tarjimasi "o'lim" ekanligi, jumla esa "O'lim haqdir" degan mazmunni anglagach, Ofiserning gaplari, o'g'ilning otasi haqidagi hikoyasi mag'zini chaqadi va hayotning o'zi falsafa ekanligiga amin bo'ladi. Darhaqiqat, inson tom-tom kitoblarni o'qib haqiqat topmoqchi bo'ladi. Aslida esa, haqiqatni hayotning o'zi ko'rsatishini keyin anglab yetadi. Agarda anglay olsa, albatda.

Mavlono Jaloliddin Rumi: "Har qanday ashyoning qimmatini ziddi bilan ayon bo'ladi, ziddi bo'lmagan narsani ta'rif etish imkoniyatdan tashqaridadir. Tangri nurni oshkor bo'lishligi uchun qorong'i etib yaratgan mazkur olamni mavjud ayladi", degan edi. Mamasiddiq cholga o'xshaganlar bir umr nurni anglamay, hayotni faqat qorong'u go'shalarida tentirab o'tkazadilar.

Mamasiddiq pishiq obrazi U. Hamdamning "Isyon va itoat" romanidagi Tursunboy jontalashni eslatadi. U ham umrning mazmunini faqat ertayu kech qora mehnatda deb bilardi, afsuslanarli joyi shundaki, umr poyoniga etganda ham asl haqiqatni anglamadi. Mamasiddiq esa og'zidagi oshini ham yutolmay, bir nimalarni pichirlagancha, ko'zlaridan ikki tomchi sariq yosh bilan vafot etdi. CHol so'nggi damda "bolalarim, ko'zingizni oching, tirikchilik g'amida behuda elib yugurmang, umr juda qisqa, men kabi og'zingiz oshga etganda yiqilib qolmang, o'lim haq. SHu bois bu besh kunlik dunyoda bir biringizni g'animat biling, yaxshiliklar ulashing, go'zal yashang!" deyayotganday tuyiladi.

Xulosa qilib aytganda, yozuvchi I. Sultonning mazkur hikoyasi falsafiy mavzudagi hikoyalar ichida o'z o'rininga ega asarlardan sanaladi.

Bob yuzasidan quyidagi xulosalarga kelindi:

- Istiqlool yaratgan imkoniyat tufayli so'nggi yillar o'zbek hikoyachiligida olam va odam, yaxshilik va yomonlik, hayot va o'lim kabi falsafiy kategoriyalar

teran talqin qilinmoqda. Bu hol, ayniqsa, X.Do'stmuhammad, I.Sulton hikoyalarida yaqqol namoyon bo'ladi.

- Hozirda yaratilgan hikoyalarda sho'ro davri adabiyoti uchun imkonsiz bo'lgan iymon, e'tiqod, milliy erk kabi milliy xarakterga xos qadriyatlar kun tartibiga qo'yildi.

- Millat fojiasi jamiyat, shaxs va ma'naviy tushkunlik oqibati ekani X.Do'stmuhammad hikoyalarida estetik ideal darajasiga ko'tarildi.

II BOB. Falsafiy qissalar qiyofasi

2.1. Insonni anglashning o'ziga xos falsafasi

Qissa janri hikoyaga nisbatan badiiy fikr harakati uchun keng imkon beradi. Ana shu imkoniyatdan foydalangan yozuvchilar inson fojiasining yangicha badiiy talqinini yaratishga erishmoqdalar.

Qissa epik tur janrlari orasida imkoniyatlari hikoyaga qaraganda kengligi, shaklining rang-barangligi, mazmunining ko'lamdorligi bilan ham ajralib turadi. Mana shu xususiyatlariga ko'ra bu janrni ummonga qiyoslash mumkin. Badiiyat olami esa kashfiyotlar manbaidir.

So'nggi yillarida yaratilgan o'zbek qissalariga xos etakchi tamoyillaridan yana biri bu an'anaviy realizm yo'nalishidan bir oz farq qiluvchi ijtimoiy hayot oqimining shaxs tabiati, ruhiyatiga ta'sirini badiiy tadqiq va tahlil qilishdagi yangicha yondashuv orqali namoyon bo'lmoqda. YOzuvchilar ijtimoiy hayot muammolari yoki ma'naviy-axloqiy yo maishiy hayotga oid muammolarni ko'tarib, ularning inson hayotiga, ruhiyatiga ta'sirini badiiy tadqiq etishdan ko'ra odamlar qismatining fojii nuqtalarini tadqiq qilishga bor imkoniyatlarini safarbar etayotirlar va o'ziga xos badiiy kashfiyotlar yaratmoqdalar.

Hayot hodisalari va inson ruhiyatini xolis kuzatish, taftish etish orqali yozuvchilar davrimizning muhim jarayonlari mohiyatini yoritishga erishmoqdalar, yoxud o'tmish davr – mustabid tuzum va uning mafkurasi yetkazgan fojialarni insonlar ongu tafakkuri hamda ruhdagi inqirozga, ziddiyatga bog'lab yoritmoqdalar. Demak, nasrimiz o'z taraqqiyotining yangi davrini davom ettirmoqda. Ma'rifatli jamiyatdagi inson haqidagi haqiqatni aytish, zamondoshimiz qiyofasining “kontseptual inson”dan farqli qirralarini tasvirlash, yuksak milliy va umuminsoniy qadriyatlarni e'zozlashga da'vat ruhi mustaqillik davri o'zbek qissalariga xos muhim estetik xususiyatdir. Tanqidchi Abdulla Ulug'ov o'zining «Dardman dil iltijolari» maqolasida: “Ruhimizning hech bir qonun, farmoyishlarga sig'ishmaydigan quvonch, qayg'udek turfa bisotlari bisyor. endilikda esa iste'dodli ijodkorlarimiz ana shu izohsiz olam ranglarini chizishga intilishmoqda. Ular murodlantirayotgan manzaralarda insonning har

lahzada ming bir qiyofa kasb etadigan bezovta ichki olami namoyon bo'lyapti", - deb yozganida biz tilga olgan tamoyil haqida so'z yuritgan edi.¹

Bugungi kun qissalari qahramoni o'z-o'zini taftish etib, o'z borlig'ini rang-barang jihatlaridan namoyon qilmoqda. Hayotning o'ta chigal jumboqlariga o'zgacha munosabat bildirish, ilohiy-falsafiy haqiqatlarga qaytish, "muhabbatsiz", "tutqun" turmushga ko'nikish, o'z manfaatlaridan yuksakroq insoniy burch hamda mas'uliyat oldida, aziz rishtalar qarshisida, binobarin o'zi ishongan ezgulik, poklik, samimiy tuyg'ularga bosh egish; hayot hamisha chigalliklari, ziddiyatlari, kam-ko'stlari, kemptiklari bilan hayot ekanini tan olish - yangicha yechimning yuzaga kelishi o'zbek qissalaridan insonga yangicha yondashuv tamoyili o'rin egallaganligini anglatadi.

"So'roq" qissasida bosh kahramon Bozorning adabiy gallyusinasiyaga uchragan jarayoni va sarguzashtli hayotini ifodalash orqali X.Do'stmuhammad ma'naviy-axloqiy, shuningdek, vijdonan halol yo'l bilan hayot kechirish singari ijtimoiy muammolarga jiddiy urg'u beradi. U uchar likopchalar bilan bog'liq sarguzashtlari, so'ngra vosvos bo'lib qolishi natijasida butun qishloq va rahbar xodimlar yuragiga vahima soladi. Mazkur qissada o'zbek xalq ertaklari an'analari va fantastika elementlari ajib bir tarzda birikib ketgan. Qolaversa, X.Do'stmuhammad hikoya va qissalarida 60-70-yillarda nashr etilgan ko'plab nazariy adabiyotlarda qayd etilgan ichki monologning badiiy-g'oyaviy jihatdan monolog-muhokama, monolog-xotira, monolog-kechinma turlaridan tashqari monolog-orzu, monolog-taftish, monolog-xayoliy-suhbat turlari ham uchraydi.

2.2. Hayot falsafasining badiiy talqini

Iste'dodli yozuvchi Isajon Sultonning «Munojot» qissasida tabiat manzaralarining haddan ziyod go'zal tasviri, ularga yuklangan ma'no-mazmun o'quvchini qoyil qoldiradi. Go'yo tabiat manzarasini chizayotganda yozuvchi ko'zi o'rnida narsalarni kattalashtirib ko'rsatadigan oyina paydo bo'lar, ko'nglida esa qadim donishmandlarning ruhi uyg'onardi. Misol uchun mana bu tasvir:

— *«Erning sho'ri bor-ku, shuyam yuradi. U ayyor, yomon, nuqul odamlarni*

¹ Ulug'ov A. Dardman dil iltijolari // O'zbekiston adabiyoti va san'ati. – 1993. - 26 fevr.

poylaydi.

— *Balki devor ham yurar? — dedi ona, achchig'i chiqib.*

— *Yo'q, u yurmaydi. SHo'r yuradi. Kecha Ulfat xolaning uyining orqasidagi sho'r bor-ku, o'sha erda o'tirsam, yugurib kelib devorga chiqib oldi. SHo'ralar ham uning orqasidan etib kelishibdi. Hademay Ulfat xolaning uyiga ham kirib olishsa kerak...»²⁶*

SHu birgina epizoddanok, Ulfat xolaning keksayganda yolg'iz, bir mehribonsiz qolganligi va tez orada vafot etishini anglash mumkin.

G'aribning tug'ilishidagi noodatiylik va favqulodda qobiliyatining tez namoyon bo'lishi ham qadimgi dostonlarimizni yodga soladi. Alpomish olti yoshida hech kim ko'tarolmagan kamonni ko'taradi. Majnun, hali emaklab yurgan paytidayoq, qaerda olov ko'rsa ishq, otashimikan deb unga tomon intiladi. G'arib esa tabiat bilan dillashishni xush ko'radi. G'arib — tabiat man- zaralari, hodisalari, ulardagi o'zgarishlar zahirida ulkan sohir qudrat nafasini his etib turadi. G'aribning iste'dodi — tabiat bag'ridan, go'zal manzaralardan hikmat topa oladi.

Xudoning o'zi G'aribni iste'dod degan ne'mat bilan siylayapti: Adol opa ellik yoshdan o'tgandan keyin G'aribga ko'zi yorishi, ungacha G'aribning dadasi traktorda kanalga ag'darilib vafot etgan... G'arib tug'ilgan lahzada tashqarida Ollohning rahmati — yomg'ir sharros quya ketdi. Hammasidan qizig'i shuki, G'arib dunyoga kelmasidanoq, onasining qornida yig'lagan edi. Bolaga ismni bir yuzu etti yoshga etgan Fotima kampir qo'yadi.

YUqorida aytdikki, Majnun emaklab yura boshlagan yoshidanoq, qaerda olov ko'rsa ishq, otashimikan deb unga o'zini urmoqchi bo'ladi. G'arib esa tabiat go'zalligi majnuni. Vodiyni jannatga qiyos qilishadi. U erning tabiati, bog'lari, adirlari rostdam ham jannatni eslatadi. Masalan, Farg'ona kishloqlarida deyarli hamma yosh bolalar tol-tutlarning tagi, o'rikzor va olmazor bog'lar, o't-o'lanlar orasida, loyqa suv ariqlarining qirg'og'ida katta bo'ladi. YOsh bolaga maysani

²⁶ I.Sulton. Munojot. // Boqiy darbadar. —T.: O'zbekiston, 2011.-B.108.

bosma deb bo'lmaydi, chunki uning o'zi ham maysa... Farg'onaliklarning tomorqasi juda obod. Tomorqaning orqasida esa ko'm-ko'k dala boshlanadi. Agar borsangiz, ariqlarning labida, bedazorlarning qirg'oqlarida uymalashib yurgan bolalarni ko'rasiz. YOsh bolalarning yarim kuni mevaliyu mevasiz daraxtlarning tepasida o'tadi. Isajon Sulton ham Farg'onaning xushmanzara Rishton tumanidagi Avazboy qishlog'ida tug'ilgan. Balki shundandir, yozuvchining asarlarida haddan ziyod go'zal, betakror tabiat manzaralariga duch kelamiz. Uning asarlaridagi tabiat manzaralari — hozirgi o'zbek adabiyoti uchun noyob hodisa.

Beshikda yotgan chaqaloqlar farishtalarni ko'radi deyishadi. Tobutda, odamning elkasida ketayotgan murda ham farishtalarni ko'radi, odamlarning yig'lashini, g'o'ng'ir-g'o'ng'ir ovozini eshitadi. Beshikda farishtalar parvozini tomosha qilib yotgan chaqaloq ozgina ulg'ayib beshikdan tushib, rosmana yurishni o'rgangandan keyin tabiat bag'ridagi g'aroyibotlarni ko'radi. Bola daryoda suv parisi yashashiga, qari daraxtlarning kovagini ajina makon etganiga chippa-chin ishonadi Nozik jihati shuki, bolalar o'simlik va daraxtlar oy va yulduzlar, qo'yingki, butun tabiatni o'ziga yaqin ko'radi, ularni o'zi kabi jonli, tilli-zabonli deb uylaydi. CHumchuqning bolasi yoki kuchukcha bilan gaplashayotgan bolalarni hammamiz ko'rganmiz.

«Munojot»ni, umuman, Isajon Sultonning barcha asarlarini boshdan-oyoq diqqat bilan o'qish lozim. CHunki yozuvchi har bir jumлага, jumлада aks etgan u yoki bu tabiat hodisasiga qandaydir ramz-ma'no joylaganday bo'ladi.

YOzuvchining ijodiy dunyosi go'zalliklari, nafosatidan bahra olmoqchi bo'lgan o'quvchi birinchi bo'lib «Munojot»ni o'qishi va chukur his qilishi lozim. Uning qolgan asarlarida dunyoqarashi, tafakkur ko'lami kengayib, butun odam miqyosida tiriklik sir-sinoatini tushunmoqchi bo'layotgan G'aribning turli nom va ko'rinishdagi qiyofasi namoyon bo'ladi. YOzuvchining barcha asarlarining bosh qahramoni «Munojot»dagi G'aribdir. Faqat nom va muhit o'zga. Balki adib kitobini G'arib deb nomlaganda ham bo'lardi.

«Bir hikmat o'qiyman xazonlardan men», — deydi Abdulla Oripov.

«Balog'at yoshiga etganimizda bolalik xotiralarimizning aksari uchib ketadi, — deydi mashhur olim Zigmund Freyd. — Ulg'aygan paytimiz bizda nafs uyg'onadi va bolalik degan sirli donishmandlik tuyg'usi ham tugaydi. Toki munkillab qolgan cholga aylanib, nafsimiz hech narsa tilamay qo'yganida, yana bolalik olamiga qaytib, atrofdagilarga tomosha bo'lamiz».

«YOz oxirlab bormoqda edi, tevarak-atrof sezdirmasdan tanazzul fasliga tayyorgarlik ko'rar, yalpizning sarg'aya boshlagan bandi, suvning endilikda to'q zangor tusga kirishi, jiyda barglarining birma-bir to'kilishi va nihoyat, haddan tashqari tiniq, zangori osmondan kuzning sokin nafasi ufurib turardi. Bolakay bir zumga chumolidan nigohini uzib, yalpizning ham juda qariligini ko'rdi, sho'rlikning tanasi yo'g'onlashib-semirib, ko'pdan-ko'p bachki shohchalar chiqarib yuborgan va isi ham avvalgi singari nozik-nafis emas, quyuq hamda achqimtirroq edi. Xammo salom -alik o'tining urug'ida o'simlikning qariganini, shuning uchun ham urug'ni erga sohib yuborganini ta'kidlab turardi. CHumoli tinmay chiranaverdi va pirovardida, tuyqusdan sip-silliqliq orqasi yorildi, yoriqlaridan sarg'ish-sarg'ish suyuqlik otilib chiqib boshladi, havoni chumoli zahrining o'tkir isi tutib ketdi. SHunda ham urug'ni tortib olmoqqa tirishar edi. Birdan bolaning ongida nimadir yarqillab ochilib ketganday bo'ldi, tomirlari bo'ylab allanima oqa boshladi. Tevarak-atrof juda keksa, haddan tashqari keksa edi, olam xuddi munkillab, qarib qolgan cholga o'xshardi. Bahorda erdan unib chiqqan maysa ham aslida millionlab yillar avval tug'lib bo'lgan edi. Unda... unda nima boqiy ? Azal-abad yosh va navqiron nima bor bu garduni dunda? Abad yoshlik xuddi abad qarilik singari mazmunsiz emasmi? Bolaning dilini avvalgisidan ham kuchliroq bo'lgan dahshat egallab oldi va tura solib, xo'ngrab yig'lagancha onasining yoniga chopib ketdi...»²⁷

²⁷ I.Sulton. Munojot. // Boqiy darbadar. —T.: O'zbekiston, 2011.—B.99.

Iqtibosda G'arib dunyoning haddan ziyod keksa va o'tkinchiligini tuyqus anglab etib, o'krab yig'lab yuboradi. Psixologlar aytadiki, yosh bola o'tgan kunni va kelajakni o'ylamaydi, shuning uchun yashab turgan kunidan kattalardan ko'ra ko'proq zavqlanadi. Kattalar esa o'tgan kunni eslab eziladi, kelajakni o'ylab tashvishga tushadi. Lekin psixologlarning aytganini mutloq haqiqat deb hisoblamaslik kerak. Aytmoqchimanki, harf tanib ulgurmagan bola «Nega xudo odamga oz umr bergan» deb devor tepinib yig'laydi. YOsh bolaning qalbini Karl Gustav YUng ziddiyatlar uchog'i deb ataydi. Olim deydiki, yosh bola kelgusida shaxs bo'lib etishishi uchun doimiy ravishda tirik tabiat bilan muloqot qilishi lozim. Plastmassadan yasalgan ninachi yaxshimas, bola tirik ninachining orqasidan ushlayman deb quvlab o'ynasin. Bola tarbiyasidagi haqiqat shu erda. Xullas, Isajon Sultonning G'aribi misolida ham aytish mumkinki, yosh bola ko'prok, ninachi, chumoli, daraxtlar, maysalarga yaqinrok, bir mavjudot. Keyinchalik bir tomonimizda yirtqichlik, ikkinchi tomonimizda insonlik ulg'ayib boradi.

Nafaqat o'zbek adabiyotida, balki jahon adabiyotida ham yosh bolaning qalbi azaliy va abadiy haqiqat-ma'nolarni his etishini chiroyli qalamga olingan badiiy asarni topish qiyin.

Mashhur rassomlardan biri bolaligida qarmoqqa ilingan baliqchanning og'zi chetidagi jindek qonni ko'rib yomon ahvolga tushgan ekan. Isajon Sultonning G'aribi esa salomalik urug'ini tortib borayotgan chumolining orqasi yorilib ketganini ko'rib ho'ngrab yig'lab yuboryapti. SHu G'ARIB bahonasida yosh bola qalbining mo''jizalari haqida soatlab g'aroyib gaplarni gapirish mumkin. Kun bo'yi bedapoyaning sero't qirg'og'iga molni bog'lab qo'yib, kun botkunicha tollar va tutlarning tepasida, pasti o'tlar o'sgan tutlarning tagida uynab, maysalarda yumalab, ninachining orqasidan quvlab, kechqurun esa uxlash oldidan ko'rpaga boshingizgacha o'ralib, kunduzi o'ynagan joylaringizni o'ylaysiz, xozir u erlarda jin-ajinalar bazm qilyapti deb qattiq ishonasiz. Aynan mana shu yog'duni zukko professor Abdug'afur Rasulov «SHafoat yog'dusidan bahramandlik» deb atagan va «Munojot»ga katta baho bergan edi

Bob yuzasidan xulosa

Bugunning qissalari rang-barang uslubiy izlanishlar natijasida epik ko'lam miqyoslarini kengaytirib, o'zbek nasri taraqqiyotini ta'minlamoqda. Mustaqillik davrida yaratilgan qissalar ijtimoiy voqelikni tasdiqlash yoki inkor qilish emas, uni bor ziddiyatlari bilan haqqoniy tasvirlash tendentsiyasi o'zbek nasrida barqaror ijodiy tamoyilga aylanganligini ko'rsatmoqda;

- o'zbek qissanavislari alohida shaxslar olamini, ularning o'ziga xos tuyg'ularini, intim olamini tabiiyligicha, bor ziddiyatlari bilan haqqoniy tasvirlashga harakat qilmoqdalar. Natijada o'zbek qissachiligida insonni yangi jihatlardan anglash tendentsiyasi qaror topdi. O'zbek yozuvchilari o'z ruhiyatini taftish etib, o'zligini anglashga intilgan qahramonlar hayot hodisalari va odamlarga ham o'ziga xos munosabatda bo'lishlari tabiiy hol ekanini diqqat markazida tutgan holda ziddiyatli va murakkab insonlar obrazini yaratishga erishdilar;

- insonni tasvirlash orqali insonni anglashning o'ziga xos falsafasi ham yaratiladi. O'zbek qissanavislari janr taraqqiyotining yangi davrida hodisalarga va inson shaxsiga yangi jihatlardan yondashish bilan birga real hayot hodisalari mantiqiga, xarakterlar mohiyatiga mos miqlar va afsonayu rivoyatlardan foydalanib, ularning ma'no-mazmuniga singdirilgan hayotiy falsafasini tasvirlanayotgan hodisalar mohiyatiga uyg'unlashtirish vositasida epik tafakkurning serma'no serohangligini, mazmunning ko'lamdorligini ta'minlaganlar. Natijada badiiy fikr harakati uchun keng makon yaratilgan, janr imkoniyatlari yanada kengaygan;

- yozuvchilar ayrim so'zlar yoki so'z birikmalarining ko'pma'nolilik yo ko'pohanglilik xususiyatidan mahorat bilan foydalanib, asar qahramonlari dunyosining, ruhiyatining yashirin nuqtalariga yetib bora olganlar va inson dunyosidagi fojialarni butun dahshati bilan ichdan yoritishga erishganlar;

- hayot hodisalari va inson ruhiyatini xolis kuzatish hamda badiiy tadqiqu tahlil qilish orqali yozuvchilar o'tmishdagi mustabid tuzum va uning mafkurasi yetkazgan fojialarni insonlar dunyosidagi inqirozga, ziddiyatga bog'lab

yoritmoqdalar. Natijada insonning har lahzada ming bir qiyofa kasb etuvchi rango-rang ichki olami namoyon bo'lmoqda. Natijada, xayolot bilan ruhiyat, hayotiy hodisalar bilan inson borlig'i uzviylikda, bor ko'lami va turfa ranglari ila tasvirlanmoqda, sharqona milliy ruhni, o'ziga xos hayot falsafasini ifoda qilmoqda.

III BOB. Romanlarda odam va olam inkishofi

3.1. “Boqiy darbadar” romanining o’ziga xosligi

Roman yozuvchidan uzukning kichkina ko’ziga butun bir olamni sig’dira olish va uni turli ranglarda aks ettira bilishdek g’oyat murakkab mehnatni talab qiladi. Romanda, eng avvalo, muammo qo’ya bilish muhim ahamiyatga ega. Roman epik turning eng yirik janri bo’lganligi uchun unda ko’tariladigan muammo har qanday zamonda ham, sharoitda ham dolzarbligi va zamonaviyligini yo’qotmasligi kerak.

I.Sultonning «Bokiy darbadar» romani keyingi yillardagi muvaffakiyatli ijod na’munalaridan biri desak yanglishmaymiz. Asarni ko’p sonli kitobxon talaba va yoshlar, vazminfikir ziyolilar so’rovlarida, suhbatlarida tez-tez esga olinib turganligi buning yorqin dalilidir. Ushbu asar har bir o’quvchi tomonidan iliq kutib olindi va o’tkir munozaralarga sabab bo’ldi. U bilan tanishish jarayonida kitobxon bir necha soniyalarga bo’lsa-da, «boshdan do’ppini olib» tafakkur kilishga va nihoyat imkon topadi.

YOzuvchi foniy dunyoning qiymati, yashamoqlik siri va majburiyati hakida chuqur mushohada yuritgan. Albatta, biz yangi so’z, yangi fikrdan hayratdamiz, deyishdan yiroqmiz. Ammo o’sha eski va abadiy mavzuga makon va zamon nuqtai nazaridan yangi ko’rinishda umumiy va xususiy so’z ayta olgan. Asar hajman chog’roq bo’lsada, o’z ichida keng ko’lamdagi muammo va masalalar tahlilini jamlagan. Buzilmas qonunga qarshi isyonkorlar taqdiri azaldan ayon bo’lsada, «darbadar» inson kechani unutib har tongdan «mutloq haqiqat»ni mot qilish uchun bel bog’laydi.

«Gobi cho’lidagi inson takomili markazi» darbadar insoniyatning Oliy haqiqat bilan navbatdagi elka urishtirishga bo’lgan ahmoqona harakatlaridan biridir. YOzuvchi tarixda halokatga uchragan yuksak tamaddunlarni bejiz yodga olmagan. Har qanday yuksak madaniyat tomiri erdan uzilmagandagina ahamiyatli ekanligini yana bir bor ta’kidlagan. «Parvardigori olamning g’azab kudratini ojizona tamsil etgan bu asov g’alayon ... qudratli ... mashinalarni... g’oyat yuksaklardan erga opkelib urib, er qa’riga- kamida ellik quloch chuqurlikka

ayovsiz tiqib yubordi, chuqurlar ham o'sha zahoti qum va tuproq ostida ko'milib yo'q bo'lib ketdi»²⁸.

Romanda doimo dolzarb va muqaddas tuyg'u- vatanparvarlik, millatga iftixor tuyg'usi tahsinga loyiq tarzda ifodalangan. Asar kahramonlaridan professor Ziyoning o'g'li tomonidan yozilgan maktub bilan tanishish jarayonida, biz, ha, aynan biz yana bir bor mana shu Ulug' yurtida yashashlik imkoniyati berilganligiga, mana shu YUksak ma'naviyatli elning farzandi bo'lishlik baxtiga shukronalik hissini yurak-yuragimizdan o'tkazamiz.

«Butun olamga dong'i ketgan, insoniyat tarixining zulmatlarida nur taratib turgan ulug' mutafakkirlar hayotga kelib yashab o'tgan tuproqda olam yuzini ko'rishimni iroda etganida yana bir hikmat, yana bir ramz bor»²⁹.

Vatanga muhabbat tushunchasi doimo iymon idroki bilan qo'sh yuradi. Borliqning yaratilishi sababi – muhabbat ayni paytda tiriklik quvvati hamdir. Aql har qanchalik yuksakliklarni zabt etsada, zamirida muhabbatdan mosuvo ruh hukmron bo'lsa, uning barcha amallari «hech narsa va hech narsa»dan iboratdir. Bema'no «abadiy darbadar»lik oqibati «na Vatan, na millat, na elat, na til»ning mohiyatini yo'qotadi, hammasi «hech narsaga» aylanadi.

Asar o'z navbatida xushyorlikka chaqiruvchi eslatma hamdir. Butun dunyoni egallayotgan ommaviy madaniyat aslida, inson o'zligining kushandasi emasmi? Ommaviy madaniyatning «qaerda yashash qulay bo'lsa, o'sha erda yashash kerak» g'oyasidan manqurtlikning hidi keladi. XX asr boshlarida « Vo, millato!» deya jon tikkan ulug' namoyondalar ruhiyati asarning «Avlod» bo'lmasida yangicha ko'rinish, yangicha nafasda ko'rinish beradi: « Menga yurt shu imonimni himoya qilishim, uni yot ta'sirlardan saqlay olishim, shoyadki Tangrim farzand ato etsa, uni aynan shu ruhda, shu haqiqatlar bilan tarbiyalashim uchun kerak»³⁰. «Vatanim deya jon taslim kilganlar, «Ey, Vatan» deya dengizday to'lqinlangan xalqlar, dushman tajovuzi ostida Vatan deya qirilib ketgan minglab insonlar takdirida shularni ko'raman: ular bir parcha tuproq uchun emas-aynan shu-imonning va

²⁸ I.Sulton. Boqiy darbadar. T.: O'zbekiston, 2011.-B.89.

²⁹ O'sha joyda.

³⁰ O'sha joyda.

millat ruhining qo'rg'oni bo'lgani uchun ham jon taslim kilganlar, deb o'ylayman».³¹

Ushbu fikrlarni Avlodlar tilidan aytilishi ham ko'p va xo'p o'rinlidir. Qorni qaerlarda to'ysa, o'sha joylarga yugurishga, chopishga undab, millatimiz yoshlarini yo'ldan toydirish uchun har neki imkoniyatlar ishga solinayotgan bir paytda, ularni «iymon vatansiz mavjud bo'la olmas» deya yozuvchi ogohlikka chaqiradi. Ana o'sha mutloq qulaylikni taklif kilayotgan – johillarning ko'ziga sening Vataning «pastak hujralaru, qum bosgan sho'rxok hovlidan boshqa narsa ko'rinmaydi». Ana o'shalar bu YUKSAK MA'NAVIYATLI YURTga « hech kanday qo'shin bilan ham kirib kelolmaydi». Kirib kelgan taqdirida ham (bunga 70 yillik tarix guvoh) «pastak loysuvoq uydan boshqa narsani ko'rmaydi. CHunki uni o'rab turgan «Iskandar devori» borki, u devordan faqatgina YUksak «madaniyat bulog'idan qongan» imoni butun, eliga sodiq, sinmas ruh egalarigina o'ta oladi.

Adib qat'iy ishonch bilan ta'kidlaydi: Ey Avlod! Buzilmas ma'naviy qo'rg'onlar bilan himoyalangan yurt- bu Sening YUrting! Millatingdan uyalma, o'z tilingda so'zlashga orlanma! Sening millating «zulmatlardan nur taratguvchi» millatdir. Sening xalqing «amallaridan O'zi rozi bo'ladigan Xalq»dir! «G'orlarida avliyolar, ... kichikkina sho'rxok hujrasida tafakkuri bilan butun fazoni qamrab olguchi» zotlar yashaydi.

YOzuvchi yana o'sha mustahkam ishonch bilan aytadiki: «Ana o'sha kunda jonajon tuprog'imda, o'z jonajon millatim bilan birga bo'lishni orzu qilaman!» deb qo'rqmay olg'a qadam tashlovchi yoshlar – Bu bizning AVLOD! Bizning ZURRIYOD!

3.2. Ramzlar va ularning yozuvchi niyatida tutgan o'rni.

«Boqiy darbadar»ning janrini muallif roman deb belgilabdi. Ehtimol, ayni hol didi an'anaviy romanlar ruhida tarbiyat topgan o'quvchida e'tiroz uyg'otar ham. Axir, bunda yaxlit bir voqea bo'lmasa, ko'p planli syujet asosida voqelikning keng epik manzarasi tasvirlanmagan bo'lsa, markazida qahramon turmasa... – nimasi roman?! Jahon adabiyoti tajribalaridan, xususan, G'arbda yarim asrlar ilgari

³¹ I.Sulton. Boqiy darbadar. T.: O'zbekiston, 2011.-B.48.

boshlangan “yangi roman” bobidagi izlanishlardan ozmi-ko’pmi xabardor o’quvchida e’tiroz tug’ilmasayam kerak. Zero, «Boqiy darbadar»da an’anaviy eposga xos voqeaband syujet o’rnida sirtidan bir-biriga bog’lanmay turli makon va zamonda, goh reallik, gohi xayolotda kechuvchi voqealar tasvirlangan, markazida risoladagidek qahramon turmagan bo’lsa-da, ularni bir narsa – hayotning ma’nisiyu bashariyat taqdiri haqida o’yga tolgan muallif shaxsi birlashtiradi, yaxlit butunlikka – romanga aylantiradi...

Isajon Sultonning bitigi an’anaviy yo’lda yozilmagani aqlga tayin, lekin uni modernizm yo postmodernizmga taalluqli etishga-da qiynaladi kishi. Modernistik asar deyin desa, unda ham turfa uslublar – ko’hna diniy rivoyatlardan tortib hozirgi «internet tili»gacha, ham turfa janrlar – qadim diniy didaktikadan tortib urfdagi «boevik»kacha... quroq-qorishiq birbutunlik kasb etayotibdi. Hay, postmodernistik asar deb qo’ya qolay desa, muallif olamu odam haqidagi o’y-tashvishlarini ifoda etmoq uchun badiiy model – postmodernistlar inkor qilgan metarivoyat yaratib qo’yibdi... Isajon Sulton o’zi bilgan bizdagiyo xorijdagi ijodiy tajribalarning barini ichdan o’tkazibdi – bugun o’zini qiynab turgan muammolarning badiiy idrokiyu ifodasi uchun maqbul shakl izlapti, izlanishlari sintezga olib kelibdi.

Darvoqe, g’arbda urf bo’lgan «izm»lar ma’naviyatimiz uchun zararli deguvchilarning tashvishlari, albatta, asossiz emas. Marg’ub tomoni shuki, adib o’sha «izm»lardan maqbul shaklni olgani holda, o’zi milliy zaminda sobit turibdi. Jillaqursa bir jihatni olaylik: postmodern kayfiyat degani millatlaru milliy madaniyatlar qorishuvini ko’zda tutadi, shunday zamindan unib chiqadi. YOzuvchimiz esa bu ruh-kayfiyatni butun vujudi bilan inkor qiladi, professor Ziyoning o’g’li kabi «o’zi sevgan, amallaridan O’zi rozi bo’ladigan xalq orasida» yaralganiga shukrona keltiradi, ro’zi mahsharda «o’z jonajon tuprog’ida, o’z jonajon millati bilan birga bo’lishni orzu qiladi»; Vatanni «iymonining qo’rg’oni» deb biladi, «dilining ildizlari shu er osti buloqlariga bog’lab qo’yilganday, uzilsa quriydigandek» his qiladi o’zini. Ha, asl ijod, agar u milliy-madaniy zaminda voqe bo’lsa, aslo ko’r-ko’rona taqlid bo’lmaydi. Zero, ijodiy sintez degani bir jihatdan alximiyaga monand: kimyogar turli moddalarni qorishtirib sar oltin olishga

intilarkan, singishmagan moddalar cho'kindi bo'lib shishada qolaveradi. YOzuvchi hayotning ma'nisiyu bashariyat taqdiri haqida o'yga tolga, dedik. Axir, inson hayotidan ma'ni izlash so'nggi ikki asr mobaynida adabiyotning markaziy muammosiga aylanmadimi? Ha, hatto modernizmning ayrim oqimlari inson hayotini har qanday ma'nidan ayro tushadi deb da'vo qildi ham, ozmi-ko'pmi shu kayfiyatga tushdik ham. Xayriyatki, islom nuri bilan yorishgan dillar bu kayfiyatni o'ziga sig'dirolmadi, sig'dirmadi. Jumladan, Isajon Sulton ham. YOzuvchi muammoning ildiziga nazar soladi va ko'radiki, Yaratganidan uzoqlashishi barobari inson hayotining mazmuni yo'qolib borayotganini teranroq his qilgan, bu his muttasil kuchayib borgan. Va bu nihoyasiz jarayon. SHuning uchun ham romanda yaralmish – inson «tangrining irodasiga isyon o'laroq» yaratgan eng oliy mavjudot – klon ham olamning nechog'li mukammal yaratilganini idrok etgach, «mazkur silsila aro o'z o'rnini topishga harakat qiladi». Ammo hayhot... topmaydi, topolmaydi. SHu bois ham dunyolarga sig'maydi, olamni bunchalar mukammal yaratgan Zotni «izlab topish va butun olam yaratilishining sabablarini O'zidan so'rash uchun» bosh olib chiqib ketadi. U ko'zlagan manzil belgisi: izlagani – «Uning irodasiga va mening yaratilishimdan maqsadiga mos... keladigan makon va zamon». Biroq, hayhot... u tushgan yo'l qayon eltadi, ko'zlagan manziliga etadimi va yo o'sha mangu darbadarga qismatdosh bo'lib qoladimi?.. Kim biladi, «butun olam ilgari lab borayotgan turli-tuman yo'llar»ning qay biri haq yo'l? Sobit ishonch bilan «qismatimiz shu sahroda yashab Parvardigorga ibodat qilish va ajalimiz etganida jonimizni O'ziga topshirishdir» deya kundalik yumushlariga mashg'ul badaviylarmi? Va yo yorug' olamga etak silkib, butun borlig'i – qalbiyu aqli bilan Yaratganga yuzlangan avliyoning yo'limi?.. Asarda savollar qo'yilgan, javob esa imkondan tashqarida, zero, uchinchi parvona misoli «alanga ichiga kirib otash ichra g'oyib bo'lgan»gina – BILADI va... o'zi «erishgan bilim haqida gapira olish imkoniyatidan mahrum bo'ladi...» Aslida, professor Ziyoning o'g'li aytmoqchi, «tevaragimiz ramzlarga va timsollarga to'ladir». Va shu rumuzu timsollar «aql qulog'iga baland ovoz bilan xitob qilib turibdi». Biroq biz, biz eshityapmizmi shu xitoblarni?! Mabodo, dovonga ko'tarilgan sari quloqlar bitgani kabi, bashariyat

safida yuksalishimiz barobari «aql qulog'i»miz ham bitib bormayaptimi?!. Qadimgilar adabiyotni tabiatga taqlid deganlar. CHamasi, Isajon Sultonga ham shu yo'ldan borish ma'qul ko'rinibdi – romanni ramzu timsollarga to'ldiribdi. Bu ramzu timsollar tafakkurimizga qaratilgan – fikr bilan ularni chaqishimiz tafakkurimizni charxlashiga imonim komil. Asarni o'qiganda bir-biridan murakkab savollar ketma-ket qalqib chiqaversa ham, ehtimol. Lekin ular ichida eng muhimi, bugungi taraqqiy darajasiyu ertangi imkonlari ufqining chamasidan masruru mag'rur turgan XXI asr kishisi uchun eng jo'n va eng murakkabi mana bulardir, balki: «Men kimman?» «Otim nima?»

Xulosa

Olamdagi barcha kashfiyotlaru tadqiqotlar orasida eng buyugi inson ruhiyatini anglashdir. Inson yaratilibdiki, hamisha oldinga intilib yashagan. Yaratgan bergan umrni qanday o'tkazish kerakligi to'g'risida bosh qotirgan va hayotini yaxshilash, yanada mazmunliroq yashash yo'llarini qidirgan hamda bu urinishlarda yangi-yangi narsalarni kashf etib boravergan. Vaqt o'tishi bilan bu kashfiyot «eskirib», uni bundan-da takomillashtirish mumkinligini sezib qolgan va yana harakat qilgan. Bu izlanishlar natijasi o'laroq haykaltaroshlik, me'morchilik, musiqa san'ati bilan bir qatorda adabiyot – so'z san'ati vujudga keldi. Inson zohiriy va botiniy olamining turfa ko'rinishlari adabiyotning xil va janrlarida o'z ifodasini topib kelmoqda.

Hikoya ham inson ruhiyatini ochib berishda eng samarali janrlardan sanaladi.

Xurshid Do'stmuhammad va Isajon Sultonlar ham o'zbek hikoyachiligining zabardast vakillari Abdulla Qodiriy, Cho'lpon, G'afur G'ulom, A.Qahhor, Asqad Muxtor izidan borib, bir-biridan go'zal hikoyalar yaratdi va bular orqali o'zbek hikoyachiligi xazinasiga munosib hissa qo'sha oldi.

Xurshid Do'stmuhammad va Isajon Sultonlarni davrimizning bedor, halovat bilmas, murabbiy yozuvchilaridan, desak yanglishmaymiz. Negaki, ular qalamiga mansub “Saf”, “Bozor”, “Beozor qushning qarg'ishi”, “Jim o'tirgan odam”, “Jajman”, “So'roq” (X.Do'stmuhammad), “Manzil”, “Bog'i Eram”, “Orif”, “Avliyo”, “Mitti pushtirang mahluqcha”, “TOOD”, “Boqiy darbadar”, “Ozod” (I.Sulton) kabi asarlarida behalovat qalbning goh baland pardadagi, goh sekin maromdagi sadolari eshitilib turadi

Ular asarlarida tanlagan mavzulari, ularga qo'yilgan zalvorli muammolari va bularning nihoyatda tiyraklik bilan hal etilishi jihatidan ularning talqiniy hamda tasviriy tomonlari bilan mohir yozuvchilar sifatida tanildilar.

X.Do'stmuhammad va I.Sultonlar o'z ijodlarida mavjud an'analarga ergashdilar va o'zlarining novatorlik qirralarini namoyon qila oldilar. Ular nasrida realizmning shakllangan unsurlari aniq sezilib turadi, shuningdek zamondosh

adiblarga ergashish va o'zining individual uslubiga tegishli qirralar ham ko'zga tashlana bordi. Bu esa keyinchalik har ikki yozuvchining asarlariga yangi davr nasrida shakllanib kelayotgan modernistik unsurlarning ham o'rin olib borishiga omil bo'ldi. Darhaqiqat, keyingi asarlarda SHarq donishmandligi qobig'iga o'ralgan zamonaviy nasr usullarining, ularda istifoda etib kelingan tasvir yo'llarining in'ikosini, shuning barobarida yangicha tasvir yo'llarining uyg'unlashuvi hollari aniq sezilib qoldi.

Yozuvchilar o'z asarlari syujeti hamda kompozisiyasini janrda qo'yilgan muammolarning hal etilishini nazarda tutib shakllantirgan va har bir asarda zamonaga mos keladigan, kishilarning e'tiborini torta oladigan qiziqarli syujetlar topa bilishga intilgan. Asarlarda hech kutilmagan voqealar talqini bo'lgan syujetlar ham borki, bu yozuvchilarning nasrda o'ziga xos yo'li, maqsadi bo'lganligini tasdiqlaydi. Adiblar bu asarlar syujeti, kompozisiyasini shakllantirish, qahramonlar xatti-harakatini dalillash, ularni tipiklashtirish masalalariga mahoratli adib sifatida yondashgan, ularning o'qishli, kitobxonga ta'sir etadigan darajaga ko'tara olgan.

X.Do'stmuhammad va I. Sulton asarlarining qahramonlari xotirada abadiy muhrlanib qoladigan tarixiy yoki ko'proq zamonaviy shaxslardir. Adiblar asarlariga tanlagan qahramonlarning hayotda mavjud ekanligiga, siz va biz bilan birga turib, birga yashab, bir havodan nafas olayotganiga o'quvchini ishontira oladi. Bu asarlar mutolaa qilinganida, uning qahramonlari kitobxonning ko'z o'ngida aniq bo'y cho'zib turadi. SHubhasiz, bu muvaffaqiyatga adib osonlikcha erishmagan. O'z asarlariga yurak qo'rini berganligi, ularning hayotiyligini asoslay olganligi, qisqasi, bularga, ularning turmush tarzlari, muomalalari, kishilararo munosabatlariga o'quvchini ishontira olganligi oqibatidagina erisha olgan. Bu yutuqlar o'z-o'zidan kelmagan. Adiblar har bir qahramonini badiiy mukammal bo'lishiga, hayotiy tip darajasiga ko'tarishga harakat qilgan va bunga erisha olgan.

X.Do'stmuhammad ijodi adabiyotshunosligimizda yaxshi o'rganilgan. Ammo Isajon Sulton ijodini keng rejada puxta o'rganish, asarlari yuzasidan teran tadqiqotlarni amalga oshirish adabiyotshunosligimiz oldida turgan muhim vazifalardan sanaladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

I. Siyosiy adabiyotlar.

1. Karimov I.A. O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida : havfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari. T.: "O'zbekiston".1997.
2. Karimov I.A. YUksak ma'naviyat – engilmas kuch. T. :“Ma'naviyat”, 2008.
3. Karimov I.A. Adabiyotga e'tibor – ma'naviyatga, kelajakka e'tibor. T. :“O'zbekiston”.2009

II. Ilmiy adabiyotlar.

1. Adabiyot o'qitish metodikasi. Dasturiy qo'llanma.- T: O'qituvchi, 1997.
2. Adabiy turlar va janrlar (tarixi va nazariyasiga oid). Uch jildlik. 1 jild. Epos. - Toshkent, Fan, 1991.
3. Adabiyot o'qitish metodikasi.- T: O'qituvchi, 1980.
4. Boboev T. Adabiyotshunoslik asoslari .-T: O'zbekiston, 2002.
5. Do'stmuhammad X. Beozor qushning qarg'ishi. Toshkent: SHarq, 2006.
6. Do'stmuhammad X. Ijod ko'ngil munavvarligi. –T: 2011.
7. Do'stmuhammad X. Jimjitxonaga yo'l //Tafakkur. 2001. № 3. B. 78-79-betlar.
8. Do'stmuhammedov X. Jajman. Toshkent:SHarq, 199 Rasulov B. Badiiylik bezavol yangilik. T., Sharq, 2007.
9. Dovurboeva N. Jajmanning jilvalari //YOshlik 1991. № 5.
10. Hamdam U.Y Angilanish ehtiyojlari. Toshkent, “Fan”, 2007.
11. Haqqul I. Mushohada yog'dusi. T: Fan, 2009
12. Jahon adiblari adabiyot haqida. T: Ma'naviyat, 2010.
13. Matchonov S. Kitob o'qishni bilasizmi ? .-T: O'qituvchi, 1993.
14. Mustaqillik davri adabiyoti. Toshkent, G'.G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa uyi , 2006.
15. Nazarov B. Bu sehrli dunyo... T.1980.

16. Nazarov B. Epos – adabiy tur sifatida. – Adabiy tur va janrlar. (tarixi va nazariyasiga oid) – Toshkent, “Fan”, 1991, 9-10-b.
17. Normatov U. Ijod sehri. T: Sharq, 2007.
18. Normatov U. Nasrimiz an’analari.- T.1978.
19. Normatov U. Tafakkur yog’dusi. Toshkent, MirzoUlug’bek nomidagi O’zbekiston Milliy universiteti, 2007.
20. Normatov U. Umidbaxsh tamoyillar. - Toshkent, 2000.
21. Normatov U. Umidbaxsh tamoyillar. T.2002.
22. Qodirov P. Ma’naviyat, modernizm va absurd. “Mustaqillik davri adabiyoti”. Toshkent, G’.G’ulom nomidagi nashriyot-matbaa uyi, 2006.
23. Quronov D. Adabiyotshunoslikka kirish.-T: Abdulla Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti, 2004.
24. Quronov D.,Mamajonov Z.,SHeralieva M. Adabiyotshunoslk lug’ati. Toshkent, “Akademnashr”, 2010.
25. Ro’zimuhammedov B. Nazariyaga befarq qarayapmizmi? // O’zAS. 2001. 7 dek.
26. Rumiyl Jaloliddin. Ichindagi ichindadir (Turk tilidan U. Abduvahob tarjimasini) Toshkent: YOzuvchi. 1997.
27. Sarimsoqov B. Badiiylik asoslari va mezonlari. Toshkent: 2004.
28. Sarimsoqov B. Badiiylik asoslari va mezonlari. Toshkent, O’z FA Alisher Navoiy nomidagi Til va adabiyot instituti. 2004.
29. Sattorova G. Milliy xarakter va badiiy talqin. Toshkent. “Fan”, 2007.
30. Sharafiddinov O. Ijodni anglash baxti. T: Sharq, 2004
31. Solijonov Y. Haqiqatning sinchkov ko’zlari. Toshkent, Alisher Navoiy nomidagi O’zbekiston Milliy kutubxonasi nashr., 2009.
32. Solijonov Y. So’z sehgari. Toshkent “Nihol”, 2007.
33. Sulton I. Adabiyot nazariyasi. – Toshkent, «O’qituvchi», 1980.
34. Sulton I. Boqiy darbadar.-Toshkent: O’zbekiston, 2011
35. www. “ziyonet”. uz

36.Zunnunov, J. Esonov, A. Ibrohimov. Adabiyot o'qitish metodikasi.-T:
O'qituvchi , 1992.
